

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

5111100-“Musiqiy” ta’lim yo‘nalishi 4- kurs 406-guruh talabasi

Abdullayeva Zebo Isroilovna

«Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari »

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ L. Pirnazarov

Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika fakulteti

Dekani _____ dots.Sh.Nurullayeva

“ _____ ” _____ 2015 yil.

Qarshi – 2015 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Musiqiy ta'limda o'quvchilarga ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatishning nazariy asoslar	6
..	
I.1. O'quvchilarga ijodiy faoliyat turlarini o'rgatish – pedagogik muammo sifatida	6
I.2. Shaxs ijodiy faoliyatining psixologik-pedagogik tahlili	27
II bob. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyat turlarini o'rgatish metodikasi	38
2.1 Qo'shiq ijrochiligi orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish metodi	38
2.2. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari	54
Xulosa va tavsiyalar	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz ta'lim tizimida so'nggi yillar mobaynida yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma'naviy kamolotga yetkazishda tub islohotlar amalga oshirildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarning ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o‘z e’tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo‘lgan e’tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg‘u berilgan.

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi”.

Umumta’lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish shuning uchun ham muhimki, ular yosh xususiyatlariga ko'ra mustaqil faoliyat yuritish, hayotiy maqsadini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'ladilar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o'z e'tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi ularning qobilyati, ilmiy salohiyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to'g'risidagi

fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy jihatdan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltirish, mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integrasiyasini tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Bunday dolzarb vazifalar tizimida yosh avlodni qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim sohasidagi islohotlar faqat malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilib qolmay, balki fuqarolik jamiyatining qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgandir. Bunday qarashlar bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini *“Musiqqa talimida ijodiy faoliyat turlari va ularni o‘rgatish uslublari”* tarzida tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqotimiz maqsadi musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etish yo‘llari va usullaridan foydalanishning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqquroq o‘rganish va maktab o‘quv tizimiga tadbiiq etish.

Bitiruv malakaviy ishimiz obykti musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishga o'rgatish jarayonidir.

Tadqiqotimiz predmeti esa Musiqqa madaniyati darslarida ijodiy faoliyatni tashkil orqali o‘quvchilarning notalari erkin o‘qish va kuylashiga bo‘lgan badiiy ehtiyojini qondirish hamda qiziqishlarini shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi **vazifalarni** amalga oshirdik:

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish muammolariga doir pedagogik qarashlarni tahlil qilish.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini psixologik jihatdan o'rganish.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishning amaliyotdagi ahvolini tadqiq etish.

Musiqqa madaniyati darslari musiqaviy faoliyat turlarida musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi imkoniyatlarini aniqlash va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz **ilmiy farazini** quyidagicha belgiladik: Musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin, agarda,

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lsalar;

Musiqada madaniyati darslarida ijodiy mustaqil ish turlaridan keng foydalanilsa;

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishga undovchi mavzular tanlansa va imkoniyat yaratilsa.

Bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati musiqiy ta'limda ijodiy faoliyatni tashkil etishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilinganligi va ulardan ilmiy izlanishlar davomida foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati esa ilmiy tadqiqotimiz davomida Musiqada madaniyati darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatni tashkil etishga doir ishlab chiqilgan tavsiyalar va ularning qo'llanuvchanligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini shaxs qobiliyatlariga doir pedagogik-psixologik qarashlar va shaxs tafakkurining jamiyat rivojiga ta'siriga doir Prezident I.Karimov asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati: Shu bilan aniqlanadiki, musiqada madaniyati darslarining samaradorligini, sifatini, unumdorligini yanada oshirishda ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublaridan kengroq foydalanish zarurligi isbot qilindi.

Musiqada ta'limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublari kengroq foydalanishning imkoniyatlari shakl tuzilishi hamda uning mazmuni yoritib berildi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan tayyorgarliklarining darajasi va ko'rsatkichlari aniqlandi: O'quvchilarga ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish

metodlarini keng ommalashtirish samaradorligini oshirish nazariy jihatdan va tajribada asoslandi.

I bob. Musiqiy ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatishning nazariy asoslari

I.1. O'quvchilarni ijodiy faoliyat turlarini o'rgatish – pedagogik muammo sifatida

Musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga, muammolarni mustaqil ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining ob'ekti bo'lib qolmasdan, ta'lim jarayonida o'qituvchining teng hamkoriga aylansin.

Hayot jumboqlarini, tabiat tug'dirgan muammolarni o'rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to'g'rirog'i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o'zini va olamni bilishga bo'lgan qiziqishi asrlar mobaynida faoliyatga, o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga da'vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu muammoga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda musiqqa ham muhim o'rin tutadi. Milliy musiqqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan .

Abu Ali Ibn Sino musiqqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi.

Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy «Katta musiqa» kitobida, musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma'naviy, ruhiy ta'siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan.

Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo'lib qolmay, amaliyotchi ham bo'lgan. Uning o'zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrliligi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritib, Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi».

Xususan, milliy madaniyatda o'quvchilarni ijodiy faoliyatni yuksak tuyg'ular, zavq - shavqli g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi.

Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Ko'pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida musiqa ta'limiga ham e'tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg'ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko'pgina insoniy fazilatlarni uyg'otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o'rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma- yon yashaydi. Tabiat taassurotlari ostida tug'iladi, qolaversa, bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan- avlodga o'tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu- armonlari, o'y - intilishlarini mujassam etgan kuy - qo'shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo'lar edi. Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov «Kunda»

romanida yozadi: «hayot, o‘lim, muxabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz».

Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari, har soniyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma’lum darajada o‘z fidoiysini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni go‘zallikni idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma’naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan .

Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr - muhabbat va rahmdillik tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo‘lgan tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo‘yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog‘liq .

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy -iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta’sir etib borishdan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan yoshlarga ijodiy ta’lim tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustaxkamlash yo‘lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma’naviyat va madaniyat masalalariga alohida e’tibor berib kelinmoqda .

Shuni ta’kidlash lozimki O‘zbekistonda inson ma’naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda .

Bunda ma'naviyat va ma'rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma'rifiy aloqalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarning tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar «O'zbekiston vataniman» nomi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan an'anaviy tanlovlar madaniy ma'rifiy isloxlarni amalga oshirishda metodlar qo'llanmoqda. Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta'lim tarbiya ishlari bilan shug'ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta'kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta'limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan.

Musiqaning so'z san'ati va adabiyoti bilan uzviy holda bog'lab o'rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo'shadi.

Shaxs kamolotida o'quvchilarni ijodiy faoliyat orqali musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo'lib o'zining mustaqil o'rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga tayanadi.

Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega.

Metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda maorif va musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy prinsiplarini ilgari suradi. Bular onglilik badiiy va texnik rivojlanish prinsiplarda ega bu prinsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarni ongli idrok etish o'quvchilarni ijodiy faoliyatga, asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsional onglilik prinsipi uyg'unlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi: Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqa tarbiyasi metodikasi ta'lim metodlarini tashlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjud jumladan:

A) metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi.

V) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

S) musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari.

D) o'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa tarbiyasi metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda o'quvchilarni ijodiy faoliyati darsda yetakchi omil hisoblanadi.

Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining ijodiy faoliyati, badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Eng muhimi ijodiy faoliyat bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifatparvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda insonning ahvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi.

Alloma mashhur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbqiq etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim- tarbiyada tadbqiq etilib, ta'kidlaganidek ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi.

Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va avlodni musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalari amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqqa ta'lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqqa ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng huquqli fan hisoblanadi.

Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faolligini talab etadi. Musiqqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchi musiqqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqqa savodi mashg'ulotlari, musiqqa tinglash, musiqqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchi musiqqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at rasm bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqqada musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchi musiqqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqqa savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqqa ijodkorligi kabi bosqichlar bir biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi.

Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta'minlash, milliy musiqqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubhasiz musiqiy tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa

musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Musiqqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

Musiqqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu ijodiy jarayonlar esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi

- Bolalar musiqqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish
- Qo'shiq kuylash
- Musiqqa ostida ritmik harakatlar bajarish
- Musiqqa tinglash
- Musiqiy tafakkur
- Musiqiy dunyoqarash
- Musiqiy tasavvur
- Musiqiy qobilyatlar
- Musiqiy his-tuyg'u
- Musiqiy idrok

Musiqiy madaniyatda shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o'quvchilarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O'quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bolalarni har xil emotsional-obrazli mazmundagi asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, biz beixtiyor ularni hissiyotlariga ta'sir qilamiz va ularni kechinmalar olamiga olib kiramiz. Musiqa janrlari qahramonlik ruhidagi, lirik ohangdagi, quvnoq yumorni va jo'shqin raqsona kuylarni o'ta jiloli tovushlar hamda boy tembri bilan idrok etishga ko'mak beradi. Qo'shiq, raqs va musiqa tinglash faoliyatlari jarayonida bolalar ruhan birlashadilar hamda jamoada tarbiyalanadilar. Bolalar individual shakllanishlari uchun ham ularga jamoada yaxshi muhit yaratilgan bo'lmog'i lozim. Ijrosi yaxshi bo'lmagan, tortinchoq bolalar o'z tengdoshlarining ijrosini ko'rib ruhan tetiklashadilar va faollashadilar, ularga ergashadilar va yaxshi ijroga intiladilar. O'ziga haddan ziyod bino qo'ygan bolalarga ijrosi sust bo'lgan o'rtoqlariga yordam berishni taklif qilib, ularni kamtarinlikka o'rgatish hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Musiqqa mashg'ulotlari bolalarning umumiy madaniyatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug'ullanish (musiqqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro etish) bolalardan diqqatni, uyushqoqlikni, irodaviylikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda irodaviylik shakllanib, tortinchoqlik yo'qola boradi. Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma'naviy-madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlaydi va ularning umumiy madaniy saviyasiga asos soladi.

Musiqqa eshitish organi orqali idrok etilsada, u kishi organizmining umumiy ahvoriga – qon aylanish tizimi, nafas olishga va boshqa jihatlariga ta'sir qiladi. Qo'shiq kuylash ovoz apparatini rivojlantiradi, ovoz apparatini mustahkamlaydi, nutqni yaxshilaydi (logoped vrachlar kuylashni nutq talaffuzini davolovchi vosita sifatida qo'llaydilar), ovoz-eshitish koordinatsiyasini yaxshilaydi. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish nafas olish tizimiga ijobiy ta'sir qiladi. Musiqiy ritmik harakatlar bajarish jarayonida bolalar musiqqa bilan birgalikda har xil harakatlar bajaradilar. Bu esa o'z navbatida bola qomatini to'g'ri rivojlanishiga, uning koordinatsiyasini, to'g'ri qadam qo'yish, yurishini to'g'ri va yengil bo'lishiga imkon beradi. Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va sur'atga daxldor ifoda vositalari bolalarni bir holatdan boshqa holatga o'tishlariga, charchoqlarini yozishlariga, kayfiyatlarini ko'tarishlari uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Ibn Sino musiqqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Bu borada buyuk alloma mashxur «Qonun-fit-tib» asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: «Tanani chiniqtirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan yengil tebratish, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytiladigan qo'shiqlar – allalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani idrok etish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqqa moyilligini aniqlaydilar. Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir». Bunda Ibn Sino ma'naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan belanchagini tebratish davomida (jismoniy tarbiya) alla (qo'shiq) aytish vositalari bilan

mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o‘tgan. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqa ilmidan juda muhim ma’lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir.

Bolalar dunyosi beg‘ubor olam, eng tiniq tuyg‘ular, shirin umidlar qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr – muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa doimo biror yangilikni bilishga bu murakkab olam sirlarini tezroq egallashga harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo‘layotgan voqea - hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik bilan qabul qilib ulardan chuqur ta’sirlanadi. Ya’ni inson bolalik chog‘idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash azal - azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy va Alisher Navoiy kabi alloma mutafakkirlarimiz ijodida ham barkamol inson haqidagi yuksak g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga juda katta e’tibor berib kelinmoqda va bu yo‘nalishda bir qancha qarorlar qabul qilinib, turli tadbirlar amalga oshirilyapti. Biz kelajagi buyuk davlat yaratish uchun kurashar ekanmiz avvalo, ana shu kelajakda yashaydigan va biz boshlagan ishni yanada rivojlantirib takomillashtirishi zarur bo‘lgan farzandlarimiz tarbiyasiga katta e’tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan voqealar va siyosiy - ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda hukumatimiz rahbariyati avvalo pedagoglar va madaniy - ma’rifiy soha mutaxassislari oldiga yangi - yangi, zamonaviy vazifalarni qo‘yadi. Yoshlarga hozirgi siyosiy vaziyatni tushuntirish, ularning yosh ongini zaharlashga urinayotgan turli ma’naviy-mafkuraviy hurujlardan ularni o‘z vaqtida ogoh etib, himoya qilish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib turibdi. Bu ishni birov ataylab tarqatayotgan o‘ta xatarli yuqumli kasallikning oldini olish uchun

qilinayotgan shifokorlarning emlashiga o'xshatish mumkin. Afsuski o'ta xafli bu «Yuqumli kasallik», har xil zararli g'oya va mafkuralar ko'rinishida turli yo'llar bilan yurtimizga kirib kelib, eng avval ko'ngli ochiq, ishonuvchan, soddadil yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi va qalbini zaharlayapti. Biroq, toki dunyoda taraqqiyotga, ma'naviyatga, adolatga intilish bor ekan jamiyatda ilg'or bunyodkorlik g'oyalari tug'ilaveradi. Bugungi kunda biz shunday g'oya xalqni farovon turmush, yorqin kelajak, buyuk boshlovchi milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari mavjud va bu g'oyalar yanada takomillashib xalqimizni buyuk kelajak sari boshlab boradi. Bizning fikrimizga maktab o'quvchilari ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa madaniyati fanining imkoniyatlari ham juda kengdir. Bu vazifani talab darajasida amalga oshirish albatta ushbu fandan dars beradigan o'qituvchining siyosiy ongi va bilimiga hamda uning psixologik mahoratiga bog'liq. Demak, hozirgi davr musiqa madaniyati fani o'qituvchisi nafaqat professional ijrochi yetuk nazariyotchi bo'lishi balki siyosiy va pedagogik jihatdan ham ilg'or mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki musiqa va qo'shiq, musiqiy ohanglar kishilar ongiga, kayfiyatiga va tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ma'lum bir kuy yoki qo'shiqlar kishilarga turli kayfiyatlar va tushunchalar hosil qilib, hatto ularning dunyoqarashlarining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni bilgan ajdodlarimiz ham qadim – qadimdan yoshlar tarbiyasida musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelishgan. Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga va voqelikka munosabatini ifodalovchi xalq og'zaki musiqiy ijodi namunalari, «Alpomish» dostoni va «Shashmaqom» kabi san'at durdonalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shib kelyapti. Shu o'rinda biz milliy madaniyat deganda faqat kishilarning tashqi ko'rinishi va yurish - turishini emas, balki ularning haqiqatgo'y ichki madaniyatini, qalb go'zalligini nazarda tutayapmiz, ya'ni musiqa kishilarning avvalo qalbiga ta'sir qilib, uni poklashga xizmat qiladi. Bu xalqimizning

milliy odatlarida, ota- onaga, o'zidan kattalarga hurmat, o'zaro samimiyat va mehribonlik kamtarlik, bag'rikenglik, muxtojlariga shavqat kabi ezgu ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuksak milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish hamda turmush farovonligini ta'minlash uchun birinchi navbatda yurtimizda kafolatlangan tinchlik, siyosiy -iqtisodiy barqarorlik mavjud bo'lishi bunga erishishning eng asosiy yo'llaridan biri xalqni, avvalo yosh avlodni milliy istiqloq mafkurasi g'oyalari bilan qurollantirishdir, chunki, jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz kurash olib borilayotgan vaziyatda faqat kuchli milliy mafkura jamiyatni turli xavf - xatardan muxofaza qila oladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi - talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasi tushunchalarini shakllantirish ishlari, xususan, o'rta ta'lim maktablarida ham keng qo'yilgan. Jumladan, haftada bir marta bo'ladigan milliy ma'naviyat darslari tashkil etilgani, har kuni birinchi darslarning O'zbekiston Respublikasi Davlat Madxiyasini kuylash bilan boshlanishi, turli mavzudagi tarbiyaviy soatlar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari tomonidan uyushtirilayotgan turli tadbir va anjumanlar, uchrashuv suhbatlar bunga misol bo'la oladi. Navoiy shaxridagi o'rta umumta'lim maktablarida ham bu sohada ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, turli ilmiy-amaliy seminarlarda tajribali murabbiy - o'qituvchilar bolalarning yoshiga mos ravishda ularning ongiga milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini singdirishning differensial pedagogik - psixologik dasturini yaratish bo'yicha o'z mulohazalarini bildiruvchi ma'ruzalar bilan chiqishmoqda. Bu o'z navbatida pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish ishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatorida musiqa madaniyati fanining o'qitilishi bo'yicha ham mutaxassislar oldiga yangi - yangi zamonaviy, dolzarb vazifalarni qo'yimoqda, musiqa madaniyati fani

birinchi navbatda o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qilib, pirovardida ularni haqiqatgo'y komil inson qilib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi. Shunday ekan yuqorida aytib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki musiqa madaniyati fani bugungi kunda o'quvchilarga musiqiy bilim berish qo'shiq kuylashni o'rgatish va ularni estetik jihatdan tarbiyalash bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari pedagog - tarbiyachi kadrlar oldida dolzarb bo'lib turgan eng muhim vazifa yoshlar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda musiqa madaniyati fanining ham imkoniyatlari juda boy va rang-barangdir.

Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir jarayonida o'quvchilar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining keng dunyoqarashi, pedagogik-psixologik bilimi notiqlik qobiliyati va kasbiy mahoratidan unumli foydalangan holda, har bir darsga ijodiy yondashishi zarur bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan hozirgi davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, ichki va tashqi siyosat siyosiy ijtimoiy vaziyatni tinmay o'rganib, tahlil qilib, turishni va bu bilimlarni darsda o'quvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi. Hozirgi kunda ko'plab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan hamnafas bo'lgan vatanparvarlik ruhidagi muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar yaratyaptilar va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib rag'batlantirilayapti. Musiqa madaniyati fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki u doimo zamon bilan hatto faollar an'anaviy bayram va milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda olib borishda o'qituvchidan uzluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarga «Endi esa milliy istiqlol mafkurasi haqida gaplashamiz» - deb 5-6 minut ma'ruza o'qishi kerak emas, aksincha u har bir dars mavzusidan

albatta ijodiy foydalanib, dars mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holda asta - sekinlik bilan milliy istiqlol gaplarini o'quvchilarga singdirib borishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Aks holda doim bir xilda takrorlanadigan gaplar o'quvchilarni zeriktirib qo'yishi va bu butunlay kutilmagan natijani berishi mumkin. Ma'lumki milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyati mazmuniga ko'ra barcha sohaga tegishli siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy – ma'rifiy, tarbiyaviy milliy va boshqa g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada o'qituvchi uchun dars jarayonida ijodiy faoliyatlar uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Shunday ekan biz pedagoglar bilan bugungi kunda har qancha ishlasa arziydigan keng ijodiy faoliyat maydoni ya'ni barcha fuqarolar qatorida vatanimizning buyuk kelajagi uchun faxr bilan mehnat qilishi imkoniyati borligidan minnatdormiz.

Kuzatishlarga qaraganda, ijodiy faoliyat, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilish, so'ngra uni o'z kuchi bilan hal qilishda namoyon bo'ladi. Yoki, ijodiy faoliyat o'quvchilarning shunday faoliyatiki, unda eng yuqori darajadagi faollik, ijodkorlik, mustaqil hukm chiqarish va tashabbuskorlik namoyon qilinadi. Natijada o'quvchilar shu jarayonda:

- bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo'llash;
- mavzularni o'rganish davomida yangi muammoni ko'ra bilish;
- bir muammoning bir nechta (alternativ) yechimlari bo'lishi mumkinligini anglash;
- avval ma'lum bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini kombinatsiyalash;
- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay boradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa shu kabi ishlarni bajarish davomida o'quvchi faoliyatida ijodkorlik darajasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: bilish, faoliyat, eslab qolish yoki ma'lum tushunchalar asosida yangi faktlar, hodisalar, voqealarni keltirish.

Ish mazmuniga ko'ra o'xshash topshiriqlarni bajarishdagi o'quvchi harakatlari ijodiy bo'lmaydi, chunki ular namuna asosida bajariladi.

Musiqqa madaniyati darslarida faoliyati ham elementar darajada bo'ladi. Negaki uning oddiy qayta ishlash ko'rinishidagi harakatlari faoliyat tarziga kam ta'sir o'tkazadi.

Tafakkurning yetarli darajada rivojlanmasligi, o'quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so'z qashshoqligi, fikrni mantiqan bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqishiga olib keladi. Bu esa masalaning g'oyatda muhimligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o'z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada ijodkor bo'lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, musiqa ta'limi oldida nechog'li mas'uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas.

Yoshlarni ijodkorlikka o'rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak e'tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali, ijodkor mutaxassislariga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor.

Muammo yuzasidan olib borilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega ekanligi isbotlandi. Chunki tafakkur nutq vositasida ifodalanadi, u ayni chog'da shaxslik sifatlarini tarkib toptirishning ham muhim omilidir.

O'quvchilarning shaxslik sifatlarini tarkib toptirishda o'quv predmetlarining o'rni beqiyos kattadir. Bu borada, ayniqsa, musiqa ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat tushadi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish oson narsa emas. Bu ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Ijodiy faoliyatga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'q.

ijodiy faoliyat-ijtimoiy faoliyatdir va ijodiy jarayondir.

Birinchidan, ijodiy faoliyat- bu mustaqil musiqada faoliyatlar ko`rsatishdir.

Mashg'ulot ijodiy faoliyat tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, baholashi va ishonchiga ega bo'ladi. Hech kim biz uchun ijodiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, faoliyat yakka tartibli xarakterga ega bo'lgandagina, uni ijodiy faoliyat deb atash mumkin. O'quvchilar o'z aqli, faoliyati va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topa olish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday faoliyat zarurligini har bir o'quvchi o'zi uchun o'zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik ijodiy faoliyatning eng muhim jihatlaridan biridir.

Ikkinchidan, musiqada faoliyatlar ijodiy faoliyatning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni ijodiy faoliyatga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Ba'zan «bo'sh kalla bilan faoliyat qiyin», deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo»- dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Har qanday yoshda ham ijodiy faoliyat mumkin: faqat o'quvchilardagina emas, balki hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning faoliyat qobiliyatlari o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham ijodiy faoliyat va butunlay mustaqil faoliyat qobiliyatiga ega. Aynan ijodiy faoliyat tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchidan, jodiy faoliyat, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi. «Barcha hayvonot olamida- deb yozadi kimyogar va faylasuf Mikael Poloniy, uning eng sodda shakli bo'lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab, biz adabiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog'liq bo'lmagan izlanuvchanlik

faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o'z atrofini aql-zakovat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz»¹. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas hususiyatidir. Bu hususiyat yosh bolalarda ayniqsa kuchli bo'ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o'quvchining muammoni hal qilishi. O'zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo'lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyuning aytishicha, agar o'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda ijodiy faoliyat paydo bo'ladi. «O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir». «Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi»².

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, o'quvchilar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, o'quvchilarni bu muammolarni o'zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Ijodiy faoliyat tufayli o'qish eski «maktab» ishidan aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida o'quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to'plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar.

To'rtinchidan, ijodiy faoliyat ishonchli dalillarga intiladi. Ijodiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

¹ University Sacramento 4 I Meyers C (1986) Teaching Students to Think Criticallu: A Guide for Fakultu in All Disciplines San Francisco: Jossey-Bass. C.41)

² Дэвид Клустер. Танкидий фикрлаш нима? Таржимон К.Ишматов. СОРОС «Танкидий фикрлаш асослари» дастури.

Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo'ladi. Tasdiqlash-dalil markazi, uning mazmuni bo'lib hisoblanadi (ba'zan u tezis, asosiy g'oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o'z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma'lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo'lgan barcha g'oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismlari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to'rtinchi qismi bo'lgan asos turadi. Asos- bu qandaydir yo'naltiruvchi hisobning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun ham umumiy bo'ladi va u barcha ishonchli dalillar uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo'lishi, ularni yo oshirib ko'rsatilishi, yoki qabul qilinishi mumkinligini ham hisobga olgandagina yutadi. Boshqacha nuqtai-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta'sir kuchini yanada oshiradi. O'ta ta'sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro'ga ega bo'lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o'zgartirish mumkin emas.

Beshinchidan, ijodiy faoliyat- ijtimoiy bo'lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: «kimningdir huzurimda bo'lishi, meni barkamollikka erishtiradi»³. Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtai-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham ijodiy faoliyat yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashgu'lotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda o'quvchilar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman

³ Arendt H. (1977) *Tinking* New York: Harcourt.)

olganda, har qanday ijodiy fikrlovchi biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o'z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma'nodagi vazifalarni hal qiladi.

Shuning uchun ham ijodiy faoliyat yo'nalishida ishlaydigan o'qituvchi: vazminlik, boshqalarni eshitishga o'rganish, o'z fikriga javobgarlik kabi o'zaro samarali fikr almashish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. Shunday qilib, bu o'qituvchilar o'quv jarayonini sinf xonasidan tashqarida kechayotgan haqiqiy hayotga yaqinlashtirishga erishadilar.

Ijodiy faoliyat yozma ishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yozuvda faoliyat jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o'quvchi doimo faol bo'ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o'z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki, xat yozuvchi, uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. O'quvchi uchun eng qimmatlisi- o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida sinfdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir. Shuning uchun yozishni tanqidiy faoliyatning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

I.2. Shaxs ijodiy faoliyat jarayonining psixologik-pedagogik tahlili

Tafakkur - nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq tafakkur, xatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan, ya'ni sezgilar, idroklar va tasavvurlar bilan bog'langan bo'ladi.

Tafakkur faoliyati o'zining butun materialini faqat bitta manbadan, ya'ni xissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa tashqi olamni aks ettiradi. Qandaydir bir tanaga tegib turgan kelayotgan harakat sezgisi ana shu tananing harorat holatini bir xilda xarakterlab bera olmaydi. Mana shu harorat sezgisi, birinchidan, mazkur narsaning issiqlik holati bilan, ikkinchidan odamning o'z holati bilan (ya'ni ikkinchi holatda hamma narsa odamning shu gal qo'lni qanday narsaga tekkizib turganligiga bog'liq) belgilanadi. Sub'ektning bilish lozim bo'lgan ob'ekt bilan o'zaro ta'siri natijasini faqat hissiy bilish doirasidagina ana shunday umumiy, majmui bevosita bo'laklarga to'la ajratish mumkin emas ekan, demak sezgi va idroklardan tafakkurga o'tish lozim bo'ladi. Tafakkur qilish davomida tashqi olamni bundan keyingi, yanada chuqurroq bilish amalga oshiriladi. Buning natijasida narsalar, voqealar, hodisalar va boshqa shuning kabilar o'rtasida murakkab o'zaro bog'lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo'ladi. Tananing harorat holatini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi oddiy misolning o'zidan yana foydalanamiz. Bu holda tafakkur tufayli yuqoridan ko'rsatilgan har ikki o'zaro bog'lanish holatini bir-biridan qandaydir ajratish, abstraktsiyalashtirish imkoniyati tug'iladi. Bunga bevosita bilish yo'li bilan erishiladi. Odam tafakkur jarayonida sezgi, idrok va tasavvur ma'lumotlaridan foydalanadi, lekin shu bilan birga, odam tafakkur jarayonida hissiy bilish chegarasidan chetga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, odam tafakkur jarayonida tashqi olamdagi shunday xodisalarni, ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini bila boshlaydiki, ular sezgi va idroklarimizda bevosita mutlaqo berilmagan bo'ladi hamda shuning uchun umumiy bevosita kuzatish mumkin bo'lmaydi. Abstrakt, mavhum, bevosita tafakkur tufayli, bunday ko'zga ko'rinmaydigan elementar zarrachalarning voqelikda haqiqatdan borligi va ma'lum, mutlaqo ob'ektiv xususiyatlarga ega ekanligini isbotlash mumkin bo'ladi. Bevosita kuzatib bo'lmaydigan zarrachalarning bu xususiyatlarini ham tafakkur jarayonida to'g'ridan-to'g'ri yo'l bilan emas, balki boshqacha yo'l bilan, ya'ni bevosita yo'l bilan bilinadi. Shunday qilib hissiy bilish yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto ojizlik qilib qolgan

joyda tafakkur boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ularning chegaralaridan tashqariga ham chiqib ketadi. Odamning tafakkur faoliyati uchun faqat xissiy bilish bilan o'zaro aloqada bo'lishgina bilan o'zaro aloqada bo'lish ham muhim ahamiyatga egadir. Ana shunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri namoyon bo'ladi. Hayvonlarning elementar, juda sodda tafakkuri hamma vaqt ayoniy-harakat tafakkuri bosqichida qoladi; ularning tafakkuri hech vaqt mavhum, bivosita bilish darajasiga yetmaydi. Faqat so'z paydo bo'lgach, bilinayotgan ob'ektdan ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so'z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustaxkamlash, qayd qilish imkoniyati tug'iladi. Tafakkur so'zda o'zining zaruriy moddiy qobig'iga ega bo'ladi. Tafakkur faqat so'z orqali boshkalar uchun va o'zimiz uchun xam bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Fikrning nutqda ifodalanishi uning tarkib topishidagi muhim shartlardandir. Shunday qilib, inson tafakkurining ijtimoiy tarixiy mohiyatini ochiq oydin namoyon qilib beradi. Bilish insoniyat tarixi davomida egalalangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustaxkamlash va esda saqlaganda bir odamdan boshqa odamga, bir avloddan boshqa bir avlodga o'tkazish yo'li bilangina sodir bo'lishi mumkin. Bilishning barcha bunday asosiy natijalarining ana shunday qayd qilinishi til yordami bilan kitoblarda, jurnallarda, chizmalarda va boshqa shu kabilarda amalga oshiriladi.

Tafakkurni jarayon sifatida psixologik jihatdan tadqiq qilish ma'lum bir bilish natijalarini hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarini o'rganish demakdir.

Boshqacha qilib aytganda, masalan, istagan pedogogik ta'sir odamga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita emas, balki bivosita ravishda, mazkur odamning psixik xolati orqali, ya'ni odamning hissiyotlari, fikrlari va boshqa shuning kabilari bilan bog'liq ravishda ta'sir qiladi.

Tafakkur jarayoni avvalo analiz, sintez va umumlashtirishdir. Analiz-ob'ektning muayyan bir tamonlarini, elementlarini, xossalarini, bog'lanishlarini, munosabatlari va boshqa shuning kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan ob'ektni har xil bo'laklarga va komponentlarga (tarkibiy qismlarga) bo'lish demakdir.

Biron bir narsani analiz qilish davomida bu narsaning g'oyat muhim ahamiyatli, kerakli, qiziqarli va boshqa shuning kabi muayyan bir xususiyatlari juda kuchli qo'zg'atuvchisi bo'ladi va shuning uchun bunday xususiyatlar oldingi qatorga chiqib oladilar. Bunday qo'zg'atuvchilar kuchli qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradi.

Analiz bilan sintez hamma vaqt o'zaro bog'liqdir. Ular o'rtasidagi ajralmas birlik taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonining o'zidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Tevarak atrofdagi olam bilan tanishishning dastlabki bosqichlarida turli ob'ektlar avvalo taqqoslash yo'li bilan bilib olinadi.

Taqqoslanayotgan narsalarni umumlashtirish davomida-ularni analiz qilish natijasida –qandaydir umumiylik ajraladi.

Demak har qanday muhim xususiyat shuning bilan birga bir xil narsalarning mazkur guruhi uchun umumiy xususiyat ham hisoblanadi, ammo aksincha emas: har qanday umumiy (o'xshash) xususiyat mazkur guruhdagi ob'ektlar uchun muhim xususiyat bo'lolmaydi. O'quvchiga masalaning shartlarini (chizmaning va shuning kabilarni ham) o'zgartirib tavsiya qilish o'quvchining ishi bo'lmay, balki o'qituvchining ishidir. O'zlashtirilgan bilimlarni ko'chirishni to'g'ridan to'g'ri shart-sharoitni o'zgartirish bilan bog'lash tashqi pedagogik ta'sirni o'quvchilar faoliyatlarining natijasi bilangina, ya'ni ko'chirish yoki ko'chirmaslikning tashqi fakti bilan bog'lash, munosabat o'rnatish degan ma'noni bildiradi. Bu yerda hali o'quvchi tafakkur jarayonining o'zi haqida, mana shu tashqi natijaga olib keluvchi faoliyatining ichki, spesifik qonuniyatlari haqida hech narsa deyilmaydi.

Haqiqatda masala shartlarini o'zgartirish psixologik jihatdan o'quvchining faoliyati uchun qulay sharoit yaratildi, degan ma'noni anglatadi. Masala shartlarini

o'zgartirish o'quvchiga tavsiya qilingan masalani analiz qilishi, masalaning eng muhim momentlarini ajratishi va ularni umumlashtirilishi uchun yordam beradi.

Bir masalaning yechish usulini boshqa masalaga ko'chirish uchun bu masalalar o'rtasidagi eng muhim umumiy tomonlarini ochish kerak bo'ladi.

Fikr yuritish faoliyatining ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liqligida shunday muhim bir fakt namoyon bo'ladiki, har qanday tafakkur har doim shaxsning tabiat, jamiyat va boshqa to'la aks ettiruvchi tafakkuridir.

Masalan, o'quvchi o'zi biror yangilik ochish yoki biror narsani bilib olish ishtiyoqida emas, balki kattalarning talablarini bajarish majburiyati orqasida yoki o'rtoqlaridan orqada qolib ketishdan qo'rqqani uchun dars tayyorlay boshlaydi, masalani echishga kirishadi, bular haqida o'ylay boshlaydi. Biroq tafakkurning motivi qanday bo'lmasin, tafakkur jarayoni davomida hususiy bilish motivlari ta'sir qila boshlaydi.

Tafakkur maqsadga qaratilganlik xarakteriga egadir. Agar hayot va amaliyot davomida odam oldida yangi maqsad yangi muammo, yangicha ahvol va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo'lsa, odamda tafakkur qilishga zaruriyat tug'iladi.

Tafakkur yangilikni izlash, ochish demakdir. Harakatning ilgaridan ma'lum bo'lgan usullari eski bilimlar va malakalar bilan cheklanish mumkin bo'lgan hollarda muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi. Va shuning uchun tafakkur ham mutlaqo talab qilinmaydi.

Masalani yechish yo'lini topish ko'pincha birdaniga, to'satdan, bir ondayoq ochish, birdan yorishib ketish va shu kabilar sifatida tasvirlanib qoladi. Tafakkurning natijasi, mahsuloti ana shunday qayd qilinadi. Lekin psixologiyaning vazifasi ana shu natijaga olib keluvchi fikr yurtish jarayoning ichki tomonlarini ochishdan iboratdir.

O'quvchining tashqaridan berilgan yordami qanday qabul qilishiga qarab psixik faoliyatning o'tishi haqida fikr yuritishi mumkin. Tashqaridan aytib berishning ekspremental metodikasi fikr yuritish faoliyatining ichki, o'ziga xos qonuniyatlarini tekshirish imkoniyatini beradi.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikasiyasi tarqalgandir:

- 1) ko'rgazmali harakat;
- 2) ko'rgazmali obrazli
- 3) mavhum (nazariy tafakkur).

Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks holda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogli ob'ekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fontaga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli, kerak bo'lsa ma'nili bo'lishini xohlaymiz. Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilindi. Masalan, olim uchun har qanday kitob hayotining ma'nosi bo'lsa, dehqon uchun er va undan olinadigan hosil ahamiyatli hisoblanadi. Hattoki, bitta narsaning o'zi turlicha odamlar uchun turli xil ma'no va mazmun kasb etadi. Bu xulosalar aslida tafakkur va faoliyat jarayonlarining naqadar murakkab tabiatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kidlash joizki,

- birinchidan, tafakkur va faoliyat jarayonlari - bu bilish jarayonlari;
- ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirilib, bilvosita aks ettirish shakli;
- uchunchidan, bu jarayonlar xam eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi;
- to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalarini ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi.

Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob-kitob ishlari - eng elementar xarakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremlarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo'ladi.

Kallamizga kelgan barcha uy-xayollar - bu fikrlardir. Normal insonli fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mantiqiy tafakkur. - bu muhim tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mushohadalarimiz bu tafakurga misol bo'la oladi. Mashxur olim K. Yung insonlarni fikrlarshga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lgan edi.

1. Intuitiv tiplar. Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi.

2. Fikrlovchi tiplar. Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tamoni o'ziga nisbatan dominata (ustun) hisoblanadi.

Tafakur shakllari va operatsiyalari. Tafakkur qilish shakllari yoki uning mahsuliga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

Tushunchalar - tafakkurning shunday shakli yoki mahsuliki, unda narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarga xos bo'lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Hukmlar- atrofimizdagi narsalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi.

Xulosalar - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli, mahsuli bo'lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishdan yangi bir fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

O'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishni o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda darelarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan taxlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlariga bo'lib o'tish ijobiy natijalar beradi.

O`quvchilarni darsga moslashtirish, hayrihohlik munosabatlarini hosil qilish, bajariladigan ishlar bilan tanishtirish, yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilash.

O`quvchilarni bilim va malakalarni mustahkamlash.

Bunda o`quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlar doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondoshish ko`nikmalarini o`stirishga, faoliyat kobiliyati faoligini takomillashtirishga erishiladi.

3. Eshitish, idrok etishi orkali bilimlar darajasini aniqlanilash. Shu jarayonda o`quvchilarning idrok etish qobiliyatlari tekshirib ko`riladi.

O`quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb etib, shu darsga moslashish alomatlarini shakllantirib borishiga ham e`tiborni qaratmoq lozim.

Buning uchun:

Darsning boshlanish qismida quvnoq sho`x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etiladi. Darsda tinglangan bu musiqa o`quvchilarda ko`tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o`tishiga yordam beradi.

O`qituvchi tomonidan o`quvchilarda hosil bo`lgan bilim darajasini o`rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijodni boshlanishi yorqin namoyon bo`ladi yosh o`quvchilar judayam kashfiyotchi bo`ladilar: talaffuzni hikoyani, qo`shiq'larni, musiqiy asarlarni, tabiatan faol qabul qilishadi. Yosh o`quvchilarda tabiatan faollik berilgan bo`lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo`ladi. Mana shular kichik yoshdagi o`quvchilarni ijodini shakllanishini rivojlanishdir. Ijod o`quvchilarni xotirasini faollashtiradi, faoliyatni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik-faoliyat bilan birga emotsional faollikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O`quvchilarni ijodi bu mustaqil faoliyat bilan bog`liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o`rganish va qiziqtirishda namoyon bo`ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash uch yo`nalishda kuzatiladi.

Hayotiy musiqiy taasurotlar bilan boyitishda. Masalan: Ertaklar, she`rlar, milliy an`analar, kitobdagi asar qahramonlari va musiqiy o`yinlarni o`tkazishda asosiy negizni yaratadilar.

Bu o`quvchilarni ijodiy harakat usullari bilan tanishtiradi. Bu maqsadda ularga sodda asarlar, qo`shiqlar, ritmik usullar bilan ohang talaffuzlari beriladi. Musiqiy ijod namunalaridan: Masalan, asarga ritmik kirish qismini yaratish o`rganiladigan qo`shiq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin bu ijodiy harakat qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

3. Bunda oldin o`qituvchi ko`rsatadi, keyin hamkorlikda qo`shiq tahlili va maqsadga yo`naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo`shiqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarni ifodasiga bog`liq bo`lgan asarlar orkali o`quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga egadir. Masalan: ohang kuylarining variantlarini yaratish uchun, o`quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarni mavjudligini tushunishi lozim (she`r matni, musiqaaning ritmik tuzilishi, ohang tuzilishi).

4. O`quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o`ynaydi. Buni bajarish ko`proq o`qituvchiga bog`liqdir. O`qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o`yin formasini qo`llaydi. Topshiriqni bajarishda o`yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O`yin darsda emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo`lib, o`quvchilarda ijodiy yo`nalishlarini shakllantiradi. O`qituvchi o`quvchini ijodiy

rivojlanishiga katta ahamiyat berishi kerak. Musiqa tinglashda, qo‘shiq ijro etishda, bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lishda va shuningdek, musiqiy ritmik harakat va boshqalar.

3-sinfda musiqa darslari

1. Musiqaning ifoda vositalari.)

Musiqadagi dinamik belgilar.

Darsning borishi

A) O‘quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o‘tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga boglab o‘tiladi ushbu darsda «Skarabey» texnologiyasi qo‘llaniladi.

Musiqaning ifoda vositalari

Musiqaning mazmuni yoritishida turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositvlariga sur‘at, usul, tovush kabilar kiradi. Quyidagi uch misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo‘lgan sur‘atning kuy kayfiyatiga qanday ta’sir etishni kuzating.

Quvnok, o‘rtacha va og‘ir sur‘atdagi asar parchalaridan .o‘quvchilarga tinglash uchun berilib o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi

Musiqaning dinamik belgilari

Kompozitorlar biron - bir musiqa asarni yaratganlarida ularning ma’lum bir qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini mahsus belgilar bilan ko‘rsatadi. Bu belgilar asarni yoqimli jiloli eshitalishiga yordam beradi.- Musiqada bu belgilar «Dinamik belgilar» deb ataladi.

- *f- (fozle) - kuchli*

- *mf*- (*mezzo forte*) - kuchliroq
- *p* - (*piano*) - kuchsiz
- *mp* - (*mezzo piano*) – kuchsizroq

Soʻngra tarqatma materiallar orkali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf oʻkuvchilari 3 ta guruhga boʻlinadilar. Guruhlarga kartochkalar aralashtirilib tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi.

Guruxdagi oʻquvchilarning vazifasi:

1) Surʼati, tovush joʻshqinligi, tovush jarangdorliklarini qoʻyidagi rasmda koʻrsatilgandek mustaqil joylashtirish.

2) Oʻquvchilarga oʻqituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychang) tinglash uchun beriladi (audioyozuvda yoki ijro etiladi). Guruxlar shu musiqa mazmuniga moye ertak soʻzlab berish.

Surʼati

<i>Tez</i>		<i>Oʻrtacha</i>		<i>Ogir</i>
-------------------	--	------------------------	--	--------------------

Tovush joʻshqin.

<i>Quvnoq</i>		<i>Yengil, yorqin, nafis</i>		<i>kuychang</i>
----------------------	--	---	--	------------------------

Tovush jarangdorligi

<i>F</i>	<i>mp</i>	<i>p</i>
----------	-----------	----------

1. Har bir guruhning joylashxirilgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilinib qo'yiladi. Har bir guruxdan vakil chiqib guruhlarning musiqaga moye ertak mazmunini tushuntirib beradilar. Guruh javoblari taxlil qilinib hulosa keltiriladi.

II bob. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyat turlarini o'rgatish metodikasi

2.1 Qo'shiq ijrochiligi orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi

1. Maktabda musiqa tarbiyasi va ta'limi berishning asosi xor bo'lib ashula aytishdir. Ashulani to'g'ri aytish, tovushlarni to'g'ri talaffo'z qilish va ashula o'rganishni tezdastirish uchun solfejio, ya'ni notanish kuylarni notaga qarab aytish malakalarini egallash katta ahamiyatga egadir.

2. Notanish kuylarni notaga qarab ijro etish malakasini egallash juda murakkab va o'zoq vaqtni talab etadigan jarayondir. U ashula o'qituvchisidan o'z o'quvchilari bilan juda sinchiklab va sestemali ravishda ish olib borishni talab etadi. Agar o'quvchilar sinfdan – sinfga o'tganlari sari notaga qarab ashula aytish malakalarini izchillik bilan asta - sekin o'zlashtirib borsalar, yuqori chinflarda ashulani eshitib o'rganishda notaga qarab o'rganishga o'tishlari mumkin.

3. Notaga qarab ashula aytish o'quvchilardan ma'lum tayyorgarlikni - musiqa bilimining ma'lum darajada yuksalgan bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun notaga qarab ashula aytish malakasini egallashdan oldin musiqa o'quvini o'stirish, musiqa savodini o'rganish, ashulachilik malakalarini o'rganish yuzasidan ko'pgina ishlar qilingan bo'lishi kerak.

4. Maktab programmasi 1- sinf bolalari hali musiqa savodidan tegishli bilimga ega bo'lmagan paytdanoq notaga qarab ashula aytishni nazarda tutadi. Shuning uchun notaga qarab ashula aytishga o'rgatish musiqa savodini

o'rgatish bilan va ashulachilik malakalarini egallash bilan bir vaqtda boshlanadi va parallel tarzda olib boriladi.

5.Shunday qilib, ta'limning bu hamma turlari (ashula aytish, musiqa savodi, solfejio) yagona ashulaschilik jarayoni bilan bog'langan bo'lishi va xor bo'lib ashula aytish materiallari asosida olib borishda kerak. Ashula darsida bolalar bilan xor ishlari olib borishda ularning yoshiga musiqadan qachalik xabardor ekanligiga qarab nota yozuvini qo'llanishining turli formalari va usullaridan foydalanamiz.

Notaga qarab ashula aytishning oddiy turi bolalar eshitib o'rgangan ashula kuyining harakatini, notaga qarab ko'zatib borishni bilish hisoblanadi. Bolalarga 1- sinfdanoq solfejio malakalari berishni, ularni nota savodi bilan tanishtirgunga qadar notaga ashula aytishdan maqsad ko'rinishdan va eshitishdan olgan taassurotlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash tafovutlarni talaffo'z qilishni miyada tasavvur qilish mahoratini o'stirishdir. Noatga qarab ashula aytishning bu turi 1-2 sinflarga xos narsa bo'lsa undan yuqoriroq sinflarda ham foydalanish mumkin. Notaga qarab ashula aytishning bu turi amalda quyidagicha o'tkaziladi.

6.Bolalar bilan ashula o'rganib bo'lingach, o'qituvchi uning kuyini doskaga yozadi yoki sinfga ashulaning kuyini oldindan yozib tayyorlangan plakatni keltiradi. O'qituvchi bo'larning oldingi darslarida o'rganilib, notaga yozib qo'yilgan ashula ekanligini tushuntiradi. O'qituvchi har bir nota o'zining bir qismini yoki butun bir so'zni bildiradi deydi va buni tegishli misollarda ko'rsatadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda savol – javob yo'li bilan Kuyning to'zilishini, uning rivojlanishini pog'onama – pog'ona yoki sakrashlar yo'l bo'layotganligini aniqlaydi.

7.Shundakn keyin o'qituvchi bolalarga o'zi aytgan ashulani diqqat bilan eshitish va harakatlarini ko'zatib borish kerakligini aytadilar. O'qituvchi ashula aytadi va shu bilan bir vaqtda qo'lidagi tayoqcha bilan bir necha o'quvchini doskaga chiqaradi, doskadan ko'rsatib turadi.

8. Notaga qarab ashula aytishning bu turini egallash yuzasidan sinfda olib borilayotgan amaliy ish yuqorida aytib o'tilgan ashula aytishni o'rganish turlariga o'xshab olib boriladi. Avval Kuyning to'zilishi tahlil qilinadi. Agar bolalar nota cho'zimini bilsalar, u holda ashula qanday nota cho'zimlarining uchrashi aniqlanadi. Birinchi sinfda hamma bolalar notalar cho'zimini navbat bilan ularning uzun va qisqaligini («chorak», «nimchorak» terminini ishlatmay) aniqlab aytib berishlari kerak. So'ngra esa o'qituvchi nota yozuvidagi notalarni ko'rsatkich bilan ko'rsatib turadi, so'ngra o'quvchilar esa xor bo'lib ularni aytib beradilar. O'qituvchi doskaga bitta o'quvchini chiqarishi mumkin, u notalarni ko'rsatib, ularning nomlarini aytib berida va butun sinf o'quvchilari esa uning javobini diqqat bilan ko'zatib turadilar. Shundan keyin notalarni ashula ritmida xor bo'lib o'qish (solmizatsiya), so'ngra Kuyni nota nomlari bilan aytib chiqish juda foydalidir. Ko'p bolalarga ma'lum bo'lgandan keyin notaga qarab bu xilda ashula aytishdan intonatsion qiyinchiliklar uchramaydi. Hamma qiyinchiliklar notalarni ritmik va intonatsion aniq aytish malakalarini egallash yo'lidagi birinchi qadam hisoblanadi. Notaga qarab ashula aytishning bu turi ham 1-2 – sinflarning bolalari bilan olib boriladigan asosiy ishdir.

9. Notaga qarab ashula aytishning yana bir turi solfejiodir. Solfejio malakalarini egallash o'qituvchilarning mo'zika o'quvini o'stirishda, ularning amaliy ishida katta ahamiyatga egadir. Notanish Kuyni notaga qarab chalish uchvun dildan quylash o'quvi rivojlangan bo'lishi, ya'ni yozilgan Kuyning fikran tasavvur qila oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham musiqa o'quvchisini o'stirish va musiqa tarbiyasiga yetarli darajada ega bo'lishlik o'zoq vaqtni va muntazam ravishda ishlashni talab qiladi. Bunga musiqa savodini o'rganish, musiqa dadabiyotlari bilan tanishish, vokal xor malakalarini egallash mobaynida erishiladi. Bolalar sekin – asta musiqaviy o'quv bilan musiqaviy nutqning balandlik, lad bilan bir vaqtda ularda mushohada, o'qish va ashulachilik sezgilari va metroritmik xususiyatlarini tushuna va anglay boshlaydilar. Bo'lar esa ma'lum bir intonatsion tasavvurni hosil qiladi.

10.Solfedjio malakasini egallash ko'p vaqtni talab qiladi va u 1-sinf dan boshlansa ham o'zining eng asosiy maqsadiga - notaga qarab ashula o'rganishga faqat yuqori sinflarda (7- sinflarda) erisha oladi.

«dilda kuylash o'quvi» bilan tasavvur qila oladigan Kuynigina tayyorgarlik ko'rmasdan notaga qarab ijro eta oladilar. Shuning uchun notanish Kuyning notaga qarab ijro etish malakasini egallashda bolalarga tushunarli bo'lgan, ularning o'quvi va umuman musiqa saviyasiga mos keladigan material tanlash kerak. Odatda maxsus tanlab olingan mashqlar yoki ashuladan parchalar shunday materiallar bo'lib xizmat qiladi. Bo'lar mashq va parchalarda bolalarga tanish bo'lgan tovushlar ish jarayonida o'quvchilar tomonidan to'plangan maxsus intonatsion iboralardir.

10. Notanish kuylarning notaga qarab ijro etish mahoratlari birdan – bir maqsad bo'lib qolmaslik uchun, bolalarda notanish Kuyni ijro etish uchun qiziqish tug'dirishi mumkin, bu mashg'ulotlarning kelgusidagi amaliy ishda qanday katta ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatishi kerak. Shu sababli notanish Kuyni notaga qarab ijro etish uchun sinfda o'rganilayotgan ashulalarning ayrim parchalaridan foydalanish mumkin.

11.Musiqa darsida notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun quyidagi ish olib boriladi.

12.O'qituvchi doskaga nota misollari yozadi. So'ngra o'qituvchining savollariga o'quvchilarning bergan javoblari asosida kuy tahlil qilinadi. Tahlil qilish darajasi o'quvchilarning yoshiga va musiqa savodidan tayyorgarligiga qarab o'tkaziladi. Tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar tushunolmay qolgan o'rinlarini tushuntiradi, diqqatni asosiy narsaga jalb etadi.

13.Kuyni tahlil qilish jarayonida quyidagi masalalar aniqlanishi kerak:

14.Lad (parda) va tonnalik. Misol qaysi bosqichda boshlanadi.

15.O'lchov.

16.Kuyning intonatsion tuzilish xususiyatlari (harakat yo'nalishi, notalarning nomi, sakrashlar, ularning katta - kichikligi).

17. Kuyning ritmik tuzilishi xususiyatlari (misolida qanday choʻzimlar uchraydi, pauzalar bormi, misol taktning qaysi hissasidan boshlanadi va boshqalar).

18. Misoldagi musiqaviy iborani va nafas olishni aniqlash.

19. Misolni ijro etish, yaʼni qoʻshiq ritmida nota oʻqish.

20. Kuydan sinflarda do major misolida foydalaniladi.

21. Shulardan keyin solfedjioga oʻtish mumkin. Kuyni toʻgʻri ijro etish uchun oʻquvchilar ovoz tonini toʻgʻri sozlash juda muhimdir.

22. Agar notanish kuyning notaga qarab ijro etish uchun qoʻshiqda parchalar yoki soʻzlardan misol tanlab olinsa, u holda soʻzlar kuy aniq va ishonchli oʻrganilgandan keyingina nota ostiga yoziladi. Ana shundagina misol qaysi qoʻshiqdan olingan boʻlsa, oʻsha qoʻshiqning nomi yoziladi. Solfedjio malakasini egallashda qoʻshiq darsliklari katta yordam berishi mumkin. Bunda darsliklarda notanish notaga qarab qoʻshiq uchun turli misollar sistemali va izchil tanlab borilgan.

23. Notanish kuyni chalayotganda qoʻshiqni ritmik va baravar ijro etish uchun bolalar oʻzlari dirijyorlik qilishlari (taktning koʻrsatib turishi) kerak. Quyi sinflarda beriladigan barcha misollar 2-4 oʻlchovda boʻlganligi sababli, dirijyorlik qilish bolalarga u qadar qiyinchilik tugʻdirmaydi. Oʻquvchi yuqori sinflarda 3-4 oʻlchovdagi, keyinchalik esa 4-4 oʻlchovdagi notalarga qarab dirijyorlik qilish lozimligini tushuntiradi.

24. Oʻqituvchi yuqori sinflarda (7-8 sinflarda) oʻquvchilar bilan notalarga qarab qoʻshiqni toʻliq oʻrganayotganda notanish kuyni ijro etishga tayyorgarlik koʻrish va uni eshitishning yengillashtirish uchun intonatsiyaga asoslangan maxsus tanlangan bir qancha mashqlardan foydalansa yaxshi natija beradi.

25. Solfejio yuzasidan olib boriladigan ishda kamertondan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Unda tempni toʻgʻri topa bilish katta ahamiyatga egadir. Misolni moʻtadil tempda aytish eng qulay hisoblanadi, chunki bu oʻquvchilarga solfejio qilinadigan misolni yaxshiroq eshitish va undagi

tovushlarni aniqroq talaffuz qilish imkonini beradi. Notadagi qo‘shiqni ijro etish uchun yoki misolni tez tempda aytish uchun tempni birdan tezlashtirmasdan avval sekinroq boshlab, intonatsiyani egallagan sari tempni talab qilgan nuqtaga yetkazish mumkin. Birdaniga tezlashgan tempni qo‘shiq aytilsa xatolarga olib keladi, kuy bo‘zilib aytiladi. Solfejio uchun misol tanlayotganda bolalarning ovoz kuchini hisobga olish eng asosiy momentlardan hisoblanadi. Shuning uchun misollar tovush apparatining zo‘riqishini talab qilmaydigan qulay taassurotda bo‘lishi kerak. Buning uchun kuyni (1 - 2) sinflara yorqin tanlay tovush hosil qilish uchun olingan misollar asosan pastlashib boruvchi misol tovushlardan to‘zilishi kerak.

26.Hamma misollarda uning qaysi joyda nafas olish lozimligini ko‘rsatish kerak. Talaffo‘zning aniq bo‘lishi ko‘p jihatdan tovushni to‘g‘ri hosil qilishga bog‘liqir. Notanish kuylarni notaga qarab aytishga bog‘liqdir. Notanish kuylarni notaga qarab aytida o‘quvchilardan qattiq ovozini yaxshi eshita olmaydi va qo‘shiqni qanday aytayotganligini yaxshi nazorat qila olmaydi.

27.Hamma misollarni mo‘tadil tovushda miyig‘ida aytish kerak. O‘quvchilar qo‘shiq aytayotganlarida notaga nomlarini aniq va ravshan talaffo‘z qilishlari, unda shu harflarni to‘liq aytishlari juda muhimdir, solfejio malakasini egallash uchun har darsda har yili muntazam va izchillik bilan ishlash lozim. Notaga qarab qo‘shiq aytish 1- sinfning 2-yarmidan boshlanadi.

28.Solfejio uchun olinadigan hamma misollarni o‘lchami 2–4 bo‘lishida major tovush qatorining balandligi jihatidan turlicha bo‘lgan, asosan prima tovush zonasida ilgarilab boruvchi kuy olinishi kerak. 2- sinfda 1-sinfda o‘tilgan misollarning bir nachasini takrorlab yangi materialni o‘rganishga kirishmoq kerak. 2–sinfda Kuyning ilgarilanma harakati solfejio uchun berilgan misollarda ko‘pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari tonika uchtovushliklarini aytish asosida tersiya intervallari kvinta oktavani o‘z ichiga oluvchi misollar beriladi. 3 va 4–sinflarda ilgarilab boruvchi kuydan tashqari

barqaror bosqichlar, ya'ni tonika uchtovushliklari ustida olib borilgan ishlar davom ettiriladi. Bundan tashqari bu bir belgili tonalliklar (fa major va sol major) hamda minor ladidan (lya, mi va re minor) misollar kiritiladi.

29. 5 va 6-sinflarda mashqlar diapazoni kengayadi va kvarta va seksta intervallari kiritiladi. Minor ladidagi qo'shiqlarni aytish malakalarini egallash ishi davom ettiriladi. Kuyning ritmik to'zilishi murakkablasha boradi: nuqtali notalar, 16 talik pauzalar, takt oldi va boshqalar uchraydi. 3 va 8- sinflarda uzunroq misollar o'quvchilar uddalab keta oladigan qo'shiqlar olinadi. Tonallik doirasi kengayadi. 2- belgilik tonalliklardan misollar (re major, si bemol major, sol minor) o'rganiladi. Septima (7) intervallari kiritiladi. Turli klassik asarlardan parchalarni, ya'ni temasi va kuyi simfoniya, konsert, sonata operalaridan rus va chet el kompazitorlari asarlaridan olingan romanslar va qo'shiqlarning nota nomlari bilan ijro etish, katta foyda beradi.

30..Yuqoridagilarning hammasiga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

31.Bolalarni qo'shiq o'rgatishda solfejio malakasini egallash katta ahamiyatga ega. Qo'shiq darsida bolalarning musiqa saviyasini o'stiradigan bunday muhit ishga yetarli baho bermaslik mumkin emas.

32. Solfejio ta'limi musiqa savodini, musiqa adabiyotini o'rganish va vokal – xor malakalarini egallash ishlari bilan sistemali ravishda izchillik bilan bog'lanib borishligi kerak. Bunga har bir darsda 17-20 minut vaqt ajratishi lozim.

33.Notaga qarab qo'shiq aytishning ko'pgina turlari mavjud.

- a) ilgari eshitgan kuyni so'z bilan aytish va uni bir vaqtda
- d)nota yozuvida uning yo'nalish harakatini ko'rsatish
- b) ilgari eshitib o'rgangan Kuyni ntaga nomlarini aytib quylash.
- v) solfejio

35.Notaga qarab qo'shiq aytish 1- sinfdan boshlanadi va maktabni tugatguncha davom etadi.

36. Quyidagi 1 va 2- sinflarda notaga qarab qo‘shiq aytishning dastlab 2-turi ko‘pchilikni tashkil qilsa ham, lekin solfejioga doir mashg‘ulotlar ham o‘tkaziladi. Yuqori sinflarda solfejioning roli borgan sari ortib boradi va notaga qarab qo‘shiq aytishning birdan –bir turi bo‘lib qoladi.

37 .O‘quvchilardagi solfejio malakalarini oshirish ustaida qo‘shiq o‘qituvchisi juda katta ish olib borishi va ish metodini takomillashtirib turishi lozim.

Maktabda vokal-xor ishlarini yo‘lga qo‘yishning eng muhim va murakkab sohaga tovush va nota ustida olib boriladigan ishlardir. Sinf mashg‘ulotlari sharoitida o‘qituvchi ko‘proq “kam vokal, xira”, ba’zan xattoki xunuk tembrni ovozga ega bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradi. Bu qiyinchilik yana shu narsa bilan murakkablashdiki, bunday bolalarning ba’zilar kattalarning noto‘g‘ri uslubiy taqlid qilib, ashulanini noto‘g‘ri aytishga o‘rganib qolgan bo‘ladi. O‘qituvchi maktab bolalariga qo‘shiqni mumkin qadar to‘g‘ri ijro etishga imkon beradigan mavjud an’ana uslubida aytishga o‘rgatish kerak. Bola qanay ovozga ega bo‘lmasin unga hech bo‘lmaganda minemal darajada tovush xosil qilish madaniyatini berib ovozining tembrini siliqlash mumkin. Agar bunday ovozdan ayrim xolda foydalanib bo‘lmasa lekin xor bilan bularning hammasi bir bo‘lib, umumiy chiroyli ovoz yaratilishi mumkin. Bolalarning vokal jihatdan yaxshi ovozga ega bo‘lishi bu o‘qituvchining bolalarga ashula ta’limi berilgan birinchi kundan boshlab qunt va diqqat bilan o‘rgatishga bog‘liqdir. O‘qituvchining “vokal” sezgisi yaxshi bo‘lish kerak shu bilan birga u turli yoshdagi bolalarning ovoz xususiyatlarini bilish juda nuqtai ahamiyatga ega. Bolalar ashulani sun’iy tarzda aytmasdan, balki uni anglab aytish, o‘z ovozini nazorat qilib borish kerak. O‘qituvchi bolalarni tabiiy va erkin raivshda ashula aytishga o‘rgatish kerak. Buning uchun ashulani birinchi navbatda asta sekin va mayin tovush bilan aytishlariga erishish lozim. Agar ashula apparatimning sustligini bolalaning salom bo‘lmasligi sababli bo‘lsa, buni asta-sekin ota-onalariga aytib, vrach ko‘rigidan o‘tishga erishish kerak. Yumshoq tovush atamasi ashulani muloyim ijro etish bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bolalar ashulani bir-birga bog‘liq, legato xolida aytishga

o'rganishlari kerak. Bu ashulachilikning asosiy usulm bo'lib, kattalarning ham, kichik yoshdagi maktab o'qituvchilarining ham shu usulda aytishga erishmoq kerak.

Bolalarga ovozni legato va yumshoq qilinib chiqarishga o'rgatadigan mashqlarni imkon boricha ko'proq kiritish kerak. Bunday mashqlarni bolalr ovozining o'rta diapozoniga moslab ko'rish kerak. Bu diapozon ashula uchun eng qo'laydir. Bu maqsadag ovoz kuchini do1 dan do2 gacha va aksincha do1 dan do2 gacha o'zgartiradigan uzun notalarga mashq qilish juda foydalidir. Bu xolda qo'yidagi misoldan ko'rish mumkin.

Tovushning yumshoq qilib chiqarish bu asosiy fan bo'lib, shu fanda tovush xosil qilishning boshqa usullari yaqqol ajralib turadi, bu haqda biz yuqoriga aytib o'tgan edik.

O'rganilayotgan ashulani ijro etish rejasiga qarab qattiq tovushdan yoki nafas tovushdan foydalaniladi. Vokal mashqlarining ko'pchiligi qattiq tovushda aytish kerak. Bu vokal mashqlarini stakatto uslubida ijro etishdir. Ashula aytish jarayoni unlilarga asoslanadi va vokal tovushning sifati unlilarning shakllanishaga bog'liq. Biz gapirgan vaqtimizda tovushlar tabiiy xolda chiqaraveradi, turli unlilar refleks asosida shakllanib boradi. Chunki unlilarni to'g'ri talaffuz qiliga inson to'g'ilgan kунidan boshlab o'rganib boradi va unga hech kim alohida e'tibor berib ztirmaydi. Biroq ashula aytayotganda so'zlarni talaffuz qilish shartlari o'zgaradi, chunki ashulani ma'lum bir tempda aytish ovozni baland nay qilib chivarish ba'zi unlilar ustida bir daqiqa to'xtalish, ya'ni ritmik xolatga rioyaqilish talab qilinadi. Nuqtai unlilarga qaraganda ashuladagi unlilarga shakllantirish alohida e'tibor berishni talib qiladi. Har qanday ashula musiqa va so'z kabi kuchli ifoda vositalarini o'z ichiga olgandir. Shuning uchun ham ashulada diksiya muhim rorl o'ynashi o'z-o'zidan ma'lum. Biroq ko'pincha bolalar xorini tinganimizda ko'p so'zlarni anglay olmaymiz. Ashula o'z ma'nosini yuqotib quyadi. Bolalar ashula tekstini burro aytishga o'rinib, tovushni zuriqib, aytadilar. Ashula aytishda har

ikkala to'rtga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'qituvchi bolalarda diaksiyaning aniq bo'linishiga, so'zlarning aniq talaffuz qilishga, biroq tovushning sifatiga zarar yetkazmadigan holda bo'lishga erishish kerak. Musiqa darsining eng muhim qismlaridan yana biri melodik va garmonik soz ustidagi ishlardir. Major gammasida asosiy ton I-bosqich barqaror, uchinchi bosqich esa kuchli talaffuz qilinadi, shu bilan majorlanadi, alohida ta'kid bilan jaranglab qichadi ladning qolgan bosqichlarini ma'lum tovushda aytayotganda beqaror tovushlarning barqaror tovushlarga aylanishga intilishi doim sabab turish kerak.

Minor gammalarini talaffuz qilish qoidalari bilan major gammalarini talaffuz qilish qoidalari o'rtasida jiddiy farqlar bor. Minor gammada asosiy ton va 5-boschiq keskin, 3-bosqich esa bug'iq, xira talaffuz qilinadi va shu bilan minor ladining eshitilishini ta'kidlaydi.

Bolalar tersiyada major gammasini yaxshi ijro etishni o'rganshilari kerak. Bu xolda gamma panon bilan ijro etiladi. Buning uchun bolalar 2-guruhga bo'linadi. Birinchi gurux gammani 2-guruxdan oldinroq boylaydi. 1-gurux gammaning 3-tovushni aytishga kirishi bilan 2-guruxdagilar gammadan boshidan ayta boshlaydilar. Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'kidlar o'tilgan barcha vokal-xor, faoliyatini rivojlantiruvchi turli ko'rinishdagi ovoz mashqlari gammalar o'quvchilarni yanada tezlashtiradi. Keyinchalik esa o'quvchilar o'zlari kuylayotgan kichik-kichik hajmdagi qo'shiqlarni bemalol solfedjio qilib ayta olish imkoniyatlari qo'lga kiritadilar.

Qo'ishq bu so'zni eshitishi bilanoq kishi ko'nglida tiniq, shirin, ma'sum va maxsun tuyg'ular oqa boshlaydi. Dunyoda qo'shiqq'i yo'q xalq yo'qdir, ma'bodo bo'lsa u baxtiqarodir. O'zbek xalqi asrlar bo'yi o'z orzu-umidi, quvoni, g'am-g'ussanisi, armoni dunyoqarashi, oddiy tashvishlari barcha uy-kechirmalarini samiyatga havas qilsa arziydigan yuksak qo'shiqlarga ifodalab keladi. Umuminsoniy milliy qadriyatlarni chuqur anglaganimiz sayin va kattalarning folklor etnografik, dastlari paydo bo'ldi. Ularning repertuar boyliklari asosan xalq qo'shiqlaridan tarkib topgan. Xalqimizning ma'naviy boylikni uning qo'shiqlarida

namoyon. Xalq ogʻzaki ijodiga, uning eng muhim turi qoʻshiqqa boʻlgan hurmat va qiziqishimiz ortib bormoqda. Soʻngi yillarda unlab bolalar qoʻshiqlari yaratildi. Qoʻshiq mehr-muhabbatdan, sogʻinchdan, gʻamdan umiddan toʻgʻiladi. Ohang va shakl libosidagi insoniy tuygʻular ifodasidir. Oʻzbek xalqini ng qoʻshiqqa muxabbati cheksiz. Qoʻshiq ijod salohiyati beqiyos qoʻshiq xazinasi boy, bu olitndan qimmat xazinaning katta qismini lirik, tuy yor-yor qoʻshiqlari tashkil qiladi. Qoʻshiq oʻquvchilar ongini oʻstirishda katta ahamiyatga ega. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida qoʻshiq malakalarini shakllantirish musiqa darsi olidida turgan muhim masalalardan biridir. Koʻpchilik boʻlib qoʻshiq kuylash musiqaviy qobiliyatning rivojlanishida ijrochilik malakalarining shakllanishida, shu jumladan musiqachilarni tayyorlagan katta ahamiyat kasb etadi. Qoʻshiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq berib qolmasdan balki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga ham taʻsir koʻrsatib nafas yoʻllarini rivojantiradi. Maʼlum qoʻshiqni kuylash davomida oʻqituvchi qoʻyidagi vazifalarni hal etish yoʻllarini belgilab olish kerak.

-qoʻshiq toʻgʻrisidaboshlangʻich tushunchalar orqali oʻqituvchilarda hissa tassurotlar shakllantirish;

-ijro etish rejasini tuzushga qaratilgan musiqa yoʻnalishini tahlil qilish;

-asarni kichik bulaklarga boʻlib ishlash hamda aytish malakalarini shakllantirish yoʻllarini rijalashtirish.

-ayrim jummalarni puxta oʻrganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

-asarning badiiy qimmatini tenglovchiga yetkazib kuylash bu vazifalarni oʻquvchilarning bilim doirasini yaʼni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib oshirib boʻlmaydi. Kuylash malakalrini shakllantirish har bir bolalaning oʻz xususiyati va qoʻshiqning qobiliyatiga bogʻliqdir. Chunki bolalaning maktabgacha musiqaga, qoʻshiq aytishga boʻlgan shakllanishi undagi kuylash malakalarini shakllanish sifatiga taʻsir qiladi. Maʼlum bir asarning musiqaviy yoʻnalishi orqali

o'quvchilarda vokal-xor madaniyatini shakllanib borishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun emas qo'yidagi bosqichlar orqali maqsadga erishi rejashtiriladi.

1-bosqichdan boshlab o'quvchilarga qo'shiq kuylash yo'llarini o'rgatib boriladi.

2-bosqichning maqsadi o'quvchilarning nafas yo'llariga erkinlik hosil qilish ovoz yorqinligini puxta ta'minlash tovushlarga hamohanglikni yaxshilashdan iborat. Bunda gammalardan foydalaniladi. Shuningdek nafas olishni to'g'ri taqsim etish va to'la shakllantirish yo'llari ustida ish olib boriladi. Har ikkala bosqichda shakllangan kuylash malakalari

3-bosqichda yanada mustahkamlanadi. Chunki bu bosqich davrida o'quvchilar chuqur musiqiy his-tuyg'u tushunchasiga ega bo'ladilar hamda qo'shiqni to'g'ri aytish yo'llarini ancha yaxshi o'zlashtirishga erishadilar. Bu davrga kelib tovushlarning katta sakrashlarini o'z ichiga olgan ayrim mashqlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Natijada o'quvchilarning kuylashlari, orasida o'zviylik, izchilik aloqasi vujudga keladi. Masalan, musiqa o'qitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz sifatiga ovoz xosil qilish usuliga shuningdek boshqa kuylash malakalariga ta'sir etadi. Malakalarni shakllantirib borishda kuylash mashqlari tez-tez takrorlanib turish va o'quvchilarning guruxlarga bo'lib kuylashni joriy etish foydalidir. Bundan tashqari o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qizishlarini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish o'quvchilarning yosh va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish joizdir. Ma'lumki, bunday vositalarni oqilona hal etish, to'g'ri yo'lga qo'yish bir muncha qiyinchilik to'g'diradi. Birqator tadirlardan o'rinli foydalanish zarurligini talabchanlik, o'ziga xos izlanish, tinimsiz mehnat, g'ayrat va shijoat ko'rsatish talab qilinadi. Musiqa o'qituvchisining ana shu yo'sinda olib borgan ta'lim-tarbiya ishlari o'z samarasini beradi. O'quvchilarning tushunish qobiliyatlari bilan malakalari kamol topadi. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish ilg'or muallim tajribalarini

o'rganish shuni ko'rsatdiki, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Maktabda ma'naviy tarbiyani davr asosida tashkil qilish musiqiy-ma'rifiy ishlarning mazmun va usullarni hamisha takomillashtirib borishni talab etadi. Bu esa navbatda musiqa fani o'qituvchisining darsini ijobiy olib borish bilan birgalikda o'quvchilarni sinfdan tashqari musiqiy-ma'rifiy ishlarga tayyorlash hamda ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada ko'chaytirish muhimligidan dalolat beradi. Amalyotda sinfdan tashqari musiqiy tadbirkorlikni ommaviy va tugarak formulalari mavjud bo'lib ularni uyishtirish va o'tkazib turish milliy san'at ayniqsa narayasi va tarixning rivojlanish yo'li mashhur musiqa namoyondalarining ijodiy merosini targ'ib va tashbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Zero musiqa mashg'ulotlarida bu masalani murakkabligini sinfdan tashshqari musiqiy tadbirlash imkoniyatlaridan kengroq foydalanishli taqozo etadi.

O'quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb etib, shu dasrga moslashi alomatlarini qaratmog'i lozim. Bu esa darsning sifatsiz bo'lishiga o'quvchilarning puxta bilash bilan qurollanmay qolishga barham beradi. Shunga ko'ra darsning boshlanish qismida quvnoq, shux, jozibali biror musiqa asarin tinglash uchun tavsiya etilsa, bu musiqa o'quvchilarda ko'tarinkilik kayfiyatini hosil qiladi. Eng muhim darsning sifati, qiziqarli o'tilishiga olib keladi. Foydalanilmagan musiqa asarlari bolalar didiga, tinglash hamda faoliyat qobiliyatiga hosil qiladi mos kelish lozim. Ayni bir vaqtda o'qituvchi o'quvchilarda o'zaro xayrixoxlik munosabatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berishi kerak. Chunki o'zaro yaxshi munosabatlarda o'quvchilarda nafaqat do'stlik, bir-biriga izzat-xurmatda bo'lishi alomatlarini tarbiyalab qolmay balki qo'shiqni kuylash, tinglash va undan saqlanish omillarning kungdagidek ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan bilim va musiqa qobiliyati yaxshi bo'lgan aniq va tiniq kuylay oladigan hamda jarangdor ovoqli o'quvchilarga musiqa qobiliyati o'rta yoki sust bo'lgan o'quvchilarni beriktirib kuylash orqali ulardagi o'zaro yordam va hamkorlik ko'chaytiriladi. Jumhuriyatimizning hamma umumta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari

mavjud emas. Ko'pgina maktablarning musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur kabi o'zbek milliy cholg'u asboblariidan foydalaniladi. Agar bolalar milliy cholg'u asbobi mohiyatini tubdan bilishsa, o'rganishsa ularda milliy madaniyatimizni egallashda bo'lgan qiziqish yanada ortib boradi.

Bolalar tarbiyasida qo'shiq kuylash faoliyati yetakchi o'rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi. Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham

katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Qo'shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bo'g'inlab, xatosiz o'rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar. Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash – musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi.

Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolalarning nutqini rivojlantiradi. Musiqa o'qituvchisi (rahbari) bolalarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi.

Bola ovozni o'ziga xos xususiyatlari bog'cha bolalarining ovozi nozik, yumshoq mayin bo'ladi. Bola tomog'i undagi bo'g'in bilan katta kichkina bo'ladi. Shuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi.

Rezonator ikkiga bo'linadi:

1. yuqori bosh rezonator.
2. pastki ko'krak rezanatori.

Ko'krak rezanatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezonator esa ovozni jarangli qilib beradi.

Kuylash – bu murakkab jarayon bo‘lib, tovush hosil qiladi, ya’ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlarida qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar. O‘quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og‘iz, burun bo‘shlig‘i, halqum, traxeya, bronxlar va o‘pkalar ovoz hosil kiluvchi a‘zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish buyicha ish asta-sekin olib boriladi. Shuni inobatga olgan holda maktab ta’lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo‘ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to‘liq shakllanadi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo‘shiq o‘rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak.

Bolalar ovozini to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchi ovoz apparati o‘zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. Chunki bolarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovozning to‘g‘ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir. 6-7 yoshli bolalarda kuylash imkoniyati u qadar katta emas. Yuqorida aytib o‘tilgandek, bu ularning ovoz apparatlari to‘liq shakllanmaganligi bilan bog‘liq. 1-sinf o‘quvchilari ovozi mi 1-sol 1, fa 1- lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. Shuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo‘lmagan, sodda, ammo xarakteri va obraz jihatdan erkin qo‘shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-sekin qo‘shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo‘shiqda o‘quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko‘rgazmalar va harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta’minlaydi va tovush balandligini to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatadi. 2-sinf o‘quvchilarining ovozlari

esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. Shu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yengil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak. Asta-sekin kuylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re 1 - re 1 ga o'tadi. Uchinchi-to'rtinchi o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re 2 (mi 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular kuylash malakalariga ega bo'ladilar.

2.2. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish musiqa darsi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash – musiqaviy qobiliyatning rivojlanishidi, kuylash malakalarining shakllantirishda, shu jumladan, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdin, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi, nafas yo'llarini rivojlantiradi.

Yaxshi va ravon tarbilangan kuylash malakalari, tarbiya kelajakda ijobiy samara keltirib, rang – barang qo'shiqlarni ifodali quylash imkonini beradi. Albatta bu jarayon oson kechmay, o'qituvchidan qatsr muammo va vazifalarni to'laqonlilik bilan hal etishni talab etadi. Ma'lum qo'shiqni kuylash davomida o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etish yo'llarini olmog'i kerak.

qo'shiq to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish orqali o'qituvchilarda hissiy taassurotlarini shakllantirish;

Ijro etish rejasini to'zishga qaratilgan musiqiy yo'nalishni tahlil qilish;

Asarni kichik bo‘laklarga bo‘lib ishlash hamda kuylash malakalarini shakllantirish yo‘llarini rejalashtirish;

Ayrim jummalarni puxta o‘rganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

Asarning badiiy harakterini tinglovchiga yetkazib kuylash o‘qituvchi bu vazifalarni bajarishga kirishar ekan eng avvalo tanlangan bu qo‘shio‘ning yaratilishi haqida o‘qituvchilarga qisqacha ma’lumot berib ma’lum cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali kuylab beradi;

Musiqiy tovushlarning baland – pastlik yo‘nalishi hamda ijro xususiyatlarining bolalar yoshiga mos yoki mos emasligi to‘g‘risida ular bilan savol - javob qilish orqali qisqacha tahlil o‘tkazadi. Qo‘shiqning kichik bo‘laklariga qayta ishlash, ular orasidagi bolalar qayta o‘ylab aniq idrok etganlaridan so‘ng qo‘shiqni to‘liqligicha kuylash mumkin: bolalar qo‘shiqni to‘lig‘icha ijro etayotgan bir birini eshitishga harakat qila boshlaydilar. Bu holatni bo‘lib navbat bilan qo‘shiqni quylatadi. U yerda ham kuylovchilar, ham tinglovchilar hosil bo‘ladi. Savol – javob tariqasida har qaysi g‘uruhning qay darajada kuylanganligi aniqlanadi va o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Bu bilan asarning badiiy harakterini tinglovchiga yetkazib kuylash vazifasi amalga oshiriladi.

Bu vazifalarning o‘qituvchilarni bilim doirasini ya’ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib, amalga oshirib bo‘lmaydi. Kuylash malakalarining shakllanishi har bir bolaning o‘z xususiyati va qo‘shiqchilik qobilyatiga ham bog‘liqdir. Chunki bolaning maktabgacha musiqaga, qo‘shiq aytishga bo‘lgan munosabati, maktabda unlagi kuylash malakalarining ta’kidlanishi sifatiga ta’sir qiladi.

Ma’lum bir qo‘shiqni kuylash jarayonining o‘z talablari to‘g‘ri va puxta bajarilgandan so‘ng asarning musiqiy yo‘nalishi orqali o‘quvchilarda kuylash

malakasining shakllanib borishga katta e'tibor beriladi. Buning uchun esa quyidagi bosqichlar orqali maqsadga erishish rejalashtiriladi:

Oddiy va elementlar kuylashni o'rganishga erishish.

Oddiylikdan murakkablikka ko'chadigan mashqlar o'stida ishlash.

Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan o'rinli foydalanish.

Birinchi bosqichdan boshlab o'qituvchilarga qo'shiq kuylash yo'llari o'rganilib boriladi. Albatta bunda tovush imkoniyatlari (diapazonni) hisobga olinadi va toza sof hamda ifodali kuylalariga harakat qilinadi. Yumshoq kuylash va to'g'ri talaffo'z qilish va erkin quylashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun esa og'iz va jag'lar harakatini to'g'ri harakatga keltirish ta'minlanib boriladi. O'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslik maqsadida esa, kuylash faoliyatini musiqa tinglash faoliyati bilan tez – tez imashtirib turish nazardan chetda qolmaslik kerak. Birinchi bosqichning amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu malakalarini bir – biriga bog'liqligini ta'minlashga erishuvchi muhit hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi o'qituvchilarning yorqinlikni puxta ta'minlash va hosil qilish, ovoz tembridagi yorqinlikni puxta ta'minlash va tovushlarda hamohanglikni xshilashdir. Shu maqsadda turli mashq yohud gammalardan foydalaniladi. Shuningdek, nafasni to'g'ri taqsim etish va to'la shakllantirish yo'llari o'stida ish olib boriladi.

Demak, har ikki bosqich ham o'qituvchilarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirilib borishga qaratilgan bo'lib, jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi, ovoz hosil qilish usulining mustahkamlanishi, tovush tembri sifatining samarali oshishi yohud diapazonning sezilarli darajada kengayishi, talaffo'zlarining to'g'ri va aniq bo'lishiga chorlaydi.

Har ikkala bosqichda shakllangan kuylash malakalari uchinchi bosqichda yanada mustahkamlanadi. Chunki bu bosqich davrida o'quvchilar puxta va

chuqur musiqiy his – tuyg‘u, tushunchaga ega bo‘ladilar, hamda qo‘shiqning to‘g‘ri kuylash yo‘llarini ancha yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘ladilar. Shuning uchun ham bu davrga kelib, tovushlarning katta sakrashlarini o‘z ichiga olgan ayrim mashqlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasi shunga chorlaydiki, o‘quvchilarning o‘zaro kuylash malakalariga ta’sir qiladi. Nafas olish me’yorining tartibi bo‘lishida o‘quvchining kuchlm nazorati kuylashda ifodalilikni, urg‘u va talaffo‘zlarni ifodali bo‘lishiga olib keladi.

Kuylash malakalarini shakllantirish va rivojlatnirib borishda qo‘shiq va qisqa kuylash mashqlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mashqlarni tez – tez takrorlab turish va o‘quvchilarni guruhga bo‘lib kuylashni joriy etish foydalidir. Musiqa asarini esa, kichik bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish yaxshi samara beradi. Buning uchun qo‘shiqning umumiy har akteridan o‘zoqlashmaslik, jumlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish va izchillikning to‘laligicha saqlash kerak. O‘quvchilar qo‘shiqni ijro etayotganlarida o‘zaro bir – birlarini eshitib quylashlariga alohida e’tibor berish, ayrim hollarda esa yakkaxonlik hamda ko‘pchilik ijrosini qanday tinglash kerak ekanligi to‘g‘risida tushuncha berib borish nazardan chetda qolmasligi kerak.

Ma’lumki, o‘qituvchilar biror bir musiqa asarni erkin tahlil qila olmaydilar, yohud dastlabki mashqlarda qo‘lga kiritilgan natijalarni keyingi mashqlarda ishlatishga qiynaladilar. Kuylash malakalari orasidagi bog‘liqlikni esa yaxshi sezmaydilar. Bunday hollarda bevosita darsning samarali kechishida, ma’lum bir asarni sifatli kuylashda ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli ham o‘quvchilar orasida «qayta kuylash mashqlari» usulida qo‘llash darkor. Bu usulning 2 sharti mavjud bo‘lib, har ikkalasi bir – biri bilan o‘zviy aloqadorlikka ega.

Birinchiidan, o‘quvchi kuylayotganda aynan qilish va qanday ijobiy natijaga erishishi mumkin bo‘lgan puxta va aniq bilimga ega bo‘lishlik bo‘lsa, ikkinchiidan, nimaga erishganini har bir mashqning qanday natija berganini, shuningdek, qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganligini bilishlikdir. Shu yo‘sinda

qo‘llanilayotgan keyingi mashqlarda esa bevosita ushbu xatolarni bartaraf etish, tuzatish, sof va tiniq kuylashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Birinchi shartning puxta va to‘g‘ri bajarilishi uchun o‘qituvchi savodxonligi jarayonini kuylash jarayoniga bog‘liqligi hamda har ikkala faoliyatning mantiqan o‘zaro bir – biriga mos bo‘lishiga e‘tiborni qaratmog‘imiz lozim. Ikkinchi shartning puxta bajarilishi esa qayta kuylash mashqning ma‘lum maqsadga qaratilganligiga bog‘liqdir. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala shartning yo‘nalishi yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan 3 bosqich maqsadi bilan uzviy aloqador bo‘lib qoladi. Kuylash malakalarini shakllantirishdagi mana shu 3 bosqichni samarali bajarish o‘qituvchidan yana quyidagilarga e‘tibor berishni talab etadi;

A) Har bir o‘quvchining individual (alohida) xususiyati va imkoniyatini hisobga olish,

B) o‘quvchilarning ohangdoshlikni his etishga erishish,

V) o‘quvchilarga tanish bo‘lgan milliy cholg‘u asboblaridan keng foydalanish,

G) dars jarayonida ko‘nikmagan o‘quvchilarni o‘z vaqtida musiqa dastlabki 2-3 mashg‘ulotlardan boshlab bolalar qobiliyatini hisobga olgan holda ularni 3 g‘uruhga bo‘lib o‘tkaziladi. Kichik mashqlar o‘stida ishlayotganda bolalarni individual musiqiy qobiliyati va imkoniyatlari o‘quvchi tomonidan aniqlanib, o‘rganilib boriladi. Xususan bolalarning musiqaga munosabati, ovoz pardasining imkoniyatlari, nafas olish yo‘llari va kuylash ifodasi o‘rganiladi. Bu xususiyatlarni to‘g‘ri shakllanishiga bolalarni uch guruhga bo‘lib o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni ohangdoshlikni his etish qobiliyatini shakllantirishda o‘qituvchi avvalo ularning maktabgacha musiqaviy tarbiyasini o‘rganish kerak. Bolalarga tanish bo‘lgan qo‘shiqlarni amalga oshirish ohangdoshlikni his etishda samarali natija beradi.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishida milliy cholgʻu asboblarning bevosita muhim ahamiyati bor. Lekin Ovrupa cholgʻu asboblarning ham bu jarayonda muhim oʻrni borligini rad etib boʻlmaydi. Jumhuriyatimizning hamma umumtaʼlim maktablarida ham turli cholgʻu asboblari mavjud emas. Koʻpgina maktablar musiqa darslarida doira, nogʻora, gʻijjak, tanbur, nay kabi oʻzbek milliy cholgʻu asboblardan kam foydalaniladi. Agar bolalar milliy cholgʻular mohiyatini tubdan bilishsa, oʻrganishsa ularda milliy sanʼatimiz va madaniyatimizning oʻrganishga boʻlgan qiziqish yanada kuchayadi. Demak, ushbu cholgʻulardan koʻproq foydalanilsa kuylash malakalarini shakllanish jarayonining samarasi ijobiy boʻladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari qoʻshiq kuylashga oʻrgatish umumtaʼlim maktabining amalga oshirilishi mumkin boʻlgan muhit masalasidir. Koʻpchilik boʻlib qoʻshiq kuylash usuli musiqaviy qobiliyatning rivojlanishida vokal – xor malakalarini shakllantirishda, boʻlajak musiqashunoslarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Qoʻshiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Nafas yoʻllarini rivojlantiradi. Xullas qoʻshiq tinglash har bir bolaning oʻziga jalb qiluvchi har tomonlama foydali va samarali natija beruvchi jarayondir. Bolalarda kuylash malakalari bir vaqtning oʻzida va bir –biriga bogʻliq holda shakllanishi maktab oʻquvchilariga musiqa fanlari oʻqitishdagi baʼzi uslublarini qayta koʻrish maqsadga muvofiq ekanligini dalolat koʻpincha musiqa oʻqituvchilari kuylash malakalari hosil boʻlish jarayonini tarbiyalashda bu malakalarni bir – biriga chambarchas bogʻliqligini hisobga olmaydilar, hamda bu malakalarning bir sistemada shakllanishiga eʼtibor bermaydilar. Birorta malaka bir –biridan ajratilgan holda rivojlanmaydi.

Bolalarga qoʻshiq kuylashni oʻrganish jarayonida oʻqituvchi oʻz bilimini ular ongiga yetkazish uchun shunday qulay vaziyat vujudga keladi, bunda eng muhimi oʻqituvchi bolalarning musiqani toʻgʻri idrok qilishga tayyorlashi yuksak darajada boʻlishi kerak. Bu faoliyatning amalga oshirilishida xotari,

diqqat va emotsional ko'tarinki ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni ta'kidlaydiki, ijodiyotni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun o'qish jarayonida bo'larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy uslublaridan biri o'qituvchilarning kichik va qisqa quylash mashqlarini tez – tez takrorlashi va keyinchalik ushbu mashqlarni kengaytirib va kuchaytirib borishidadir. Kulash malakalarining shakllantirishida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablardan bir bolalarni ushbu mashqlarga qiziqtirish, bolalarning musiqa olamiga shunday olib kirish kerakki bunda ular o'qituvchining har doimgi talablaridan zerikmasinlar, agar o'qituvchi o'z xotirasini fahmlay ola bilsa, kuylash malakalarining shakllanishi jarayonining samaradorligi osha boshlaydi. Bu natijaga erishish uchun o'qituvchidan jiddiy mas'uliyat talab qilinadi. Bolalar tetik ko'tarinki ruh kayfiyatida bo'lsalar, ularning faoliyat qobiliyati faollashadi. Shu bilan bolaning musiqani idrok qilishida ham chuqur, emotsional his – tuyg'u holati paydo bo'ladi. Bu holat kuylash jarayonida ijobiy natijalar hosil bo'lishiga olib keladi.

Ma'lum bir qo'shiqni kuylash oldidan va kuylash davomida bir qancha vazifalarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Qo'shiq haqida dastlabki emotsional taassurotlar hosil qilish: ijro etish rejasini to'zish maqsadida asarning musiqaviy tilini taxlil qilish.

Qo'shiqni kichik bo'laklarga bo'lib, alohida qayta ishlash.

Asarni bir necha marta qayta ishlash.

Asarning musiqaviy badiiy obrazini kuylovchiga yetkazib kuylash

Bu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchi eng avvalo tanlangan qo'shiqning yaratilishi haqida ma'lumot berishi va ushbu qo'shiqni ma'lum cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylab berishi kerak. Endi asarni bolalarga qaysi uslubda o'rgatish kerakligini aniqlash maqsadida o'qituvchi qo'shiqdagi musiqaviy tovushlarning baland – pastligi musiqa diapazonining bolalar

yoshiga mosligi haqida bolalar bilan savol – javob tariqasida qisqacha tahlil o‘tkazadi. Qo‘shiqni kichik bo‘laklarga qayta ishlash ular orasidagi o‘zviylikni saqlagan holda oshirishi kerak.

Kichik bo‘laklarni bolalar qayta kuylab, aniq eshitganlaridan so‘ng qo‘shiqni boshidan oxirigacha kuylashi mumkin. Qo‘shiqni to‘liq kuylayotganda bolalar o‘qituvchining ijrosiga syongan holda o‘zaro bir – birini eshitishga harakat qila boshlaydi. Bu holatni o‘qituvchi o‘z vaqtida anglab olib bolalarni ikki – uch g‘uruhga bo‘lib, navbat bilan qo‘shiq kuylatadi. Savol – javob tariqamida har qaysi guruhning qay darajada kuylaganligi aniqlanadi va o‘qituvchi tomonidan baholanadi. U bilan asarning badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib kuylash vazifasi amalga oshiriladi. Bu vazifalarni o‘qituvchilarning bilim doirasini, ya’ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki xorda badiiy ifodali qo‘shiq aytish har bir o‘quvchidan ma’lum darajada kuylash malakalarining murakkab doirasini talab qiladi. Bu malaka xorda kuylashning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.

Kuylash malakalarini mukammal bilish – yosh ijrochilarning estetik tarbiya jarayonida musiqaviy badiiy obrazini chuqur his qilishlarini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalarda kuylash malakalarining shakllanishi to‘la musiqaviy tarbiyaning asosiy shartlarida biri amalga oshayotganligidan dalolat beradi.

Kuylash malakalarining shakllanishi jarayonini bolalarning har birining o‘z xususiyati va qo‘shiqchilik qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Chunki bolaning maktabga musiqaga, qo‘shiqqa bo‘lgan munosabati maktabdagi undagi kuylash malakalarining shakllanishiga va bilim olish natijalarining sifatiga ham ta’sir qiladi. Kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni bir xilda kechmaydi. Bu jarayon ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysungan holda maqsadga muvofiq yo‘nalishda amalga oshiriladi. Kuylash malakalarini

shakllantirishning boshlang'ich sinflarda quyidagicha uch bosqichda rivojlanishini ko'rib chiqamiz:

1. Oddiy elementar kuylashni o'rganishga erishish;

2. Mazkur oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish;

3. Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan samarali foydalanish

Shakllanishning birinchi bosqichidanoq bolalar kuylashga o'rgatilib boriladi. Hozircha kichik diapozonda bo'lsa ham iloji boricha toza, sof va ifodali kuylashga harakat qilish: quyilayotganda og'iz va jag'larni to'g'ri harakatga kelishini ta'minlash, yumshoq kuylashga o'rganish, kuylash talaffo'zini yaxshilash ovoz tembrini yorqinroq qilib borish kerak bo'ladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu malakalarini bir – biriga bog'liqligini ta'minlashda erishishi muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bolalarning tovush pardasiga og'irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun kuylash faoliyatini tinglash faoliti bilan tez – tez almashtirib turishi kerak.

Ikkinchi bosqichda asosiy kuylash malakalar uning barcha qirralarida ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Ular quyidagicha kechadi. Nafas yo'llarida erkinlik hosil bo'ladi, ovoz tembri yorqinlashadi, ovoz hosil bo'lishi usullari normallasadi. Kuylayotganda og'iz va jag'larning to'g'ri harakatga kelish usuli bir muncha yaxshilanadi, jarangdorlik va musiqaning eshitish qobiliyati rivojlanadi.

Oddiy mashqlarni mustahkamlash mumkin. O'quvchilar lad qonuniyatlarini ham o'zlashtirishadilar. Bu bilan musiqa savodi jarayoni bilan ham bog'liqlikka erishish mumkin.

So'ngi bosqichda kuylash malakalari rivojlangan darajada hosil bo'ladi. Jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi ovoz hosil bo'lish uslubining mustahkamlanishini, ovoz tembri sifatining yanada oshishi ovoz diapozonini

sezilarli darajada kengayishi kuylash hamda nafas olishning to'g'ri va to'la shakllanishi uchinchi bosqich uchun muhim bo'lgan omillardir. Bu bosqichda bolalar chuqur musiqaviy his – tuyg'u va to'g'ri kuylashga erishgan bo'ladilar. O'qituvchi bu bosqichda tovushlarning katta sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan bevosita foydalanishi mumkin. Bu davrda turli xil kuylash malakalari orasidan o'zaro o'zviylik aloqasi vujudga keladi. Masalan, musiqaviy eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz tembrining sifatiga ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga ta'sir qiladi. Kuylaganda nafas olishning to'g'ri yo'lga qo'yilishida o'qituvchining kuchli nazorati kuylashida ifodalikni ovoz tembri va qolgan barcha kuylash malakalari yaxshilanishi va samarali bo'lishiga olib keladi.

O'quvchilarda kuylash malakalari tarbiyalashning o'z qiyinchiliklari bo'ladi. Bolalar hali berilgan asarni to'la tahlil qila olmaydilar. Dastlabki mashqda qo'lga kiritilgan natijani keyingi mashqlarda ishlata olmaydilar: kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni to'liq ko'ra bilmaydilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'qituvchilarning musiqa tinglash va ijodiyotni to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Kuylash malakalarini shakllanishida qayta kuylash mashqlari usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining ikkita sharti mavjuddir:

O'quvchi kuylayotganda aynan nima qilishi va nimaga erishishi mumkin bo'lgan, puxta aniq bilimga ega bo'lishi kerak.

O'quvchi nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini qanday xatolarga yo'l qo'yilganini bilishi kerak, keyingi mashqlar esa ushbu xatolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Birinchi shartning to'g'ri bajarilishi uchun o'qituvchi musiqa savodxonligi jarayoniga bog'liqligiga va ikkila faoliyatning mantiqan bir – biriga mos bo'lishiga e'tibor berishi kerak. Ikkinchi shartning bajarilishi qayta kuylash

mashqning ma'lum maqsadga qaratilganiga bog'liq. Bunda o'qituvchi har gal qayta kuylagan mashqni bolalar bilan o'z vaqtida tahlil qilib borishi kerak.

Kuylash malakalarining shakllanishidagi yuqorida qayd etilgan uch bosqichni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchilariga quyidagi tadbirlarni o'tkazish tavsiya etiladi;

a) o'quvchilarning ohangdoshlikni his etishga erishi;

b) Har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish;

g) iloji boricha milliy cholg'u asboblardan foydalanish;

d) dars mobaynida qoniqmagan o'quvchilarini musiqa to'garaklariga jalb qilish.

Musiqa o'quvchisi bolalarning ohangshligini his etish qobiliyatini o'rganish uchun avvalo ularning maktabgacha olgan tarbiyasini o'rganish kerak bo'ladi. Eng avvalo bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqlarni mashq qilish ushbu tadbirni amalga oshirishga yordam beradi. Tabiiyki, bolalarning ohangdoshlikni his etish qobiliyati turli xil bo'ladi. Mashqlar uch – to'rt darslardan boshlab, qobiliyatiga qarab uch guruhga bo'lib o'tkaziladi. Kichik mashqlarni kuylayotganda bolalarning individual – musiqiy qobiliyatini aniqlab o'rganish mumkin bo'ladi.

Bu yerda individual xususiyat har bir o'quvchining musiqaga munosabati ovoz pardasining kuylash holati, nafas olish yo'llari, talaffuz ifodasi kabi xususiyatlar nazarda tutilayapti. Bu xususiyatlarning to'g'ri shakllanishida uchta guruhga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiq.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishiga milliy cholg'u asboblarning bevosita ta'siri muhim ahamiyatga ega. Lekin Ovrupa cholg'u asboblarning ham bu jarayonda muhim o'rni borligini rad etib bo'lmaydi.

Jumhuriyatimizning barcha umuta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari mavjud emas. Ko'pgina maktablarning musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur, nay kabi o'zbek milliy cholg'u asboblardan kam foyalaniladi. Milliy cholg'ular ahamiyatini mukammal bilish, o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Demak, mana shu cholg'u asboblardan ko'proq foydalanilsa kuylash malakali shakllanishi jarayonining natijasi bir muncha samarali bo'lar edi.

45 minutlik dars mobaynida ayrim o'qituvchilar qo'shiq kuylashdan qoniqmaydilar. Bunday o'quvchilarni o'z vaqtida «qo'shiqchilar ansambli» to'garagi yoki bo'lmasa «xor» to'garagiga jalb qilish kerak. Bu kuylash malakalarining rivojlanishi uchun bir olg'a qadam bo'ladi. Bu ishlar keyingi darslar mobaynida, bu o'quvchilarning yaxshi idrok eta olmaydigan o'quvchilarga albatta, ijobiy ta'sir bo'ladi.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy-pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, lining badiiy-pedagogik g'oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o'quvchilarda musiqaga qiziqishni o'stirish, ularga musiqa san'ati va madaniyatining ma'naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali-ijodiy faoliyatini anglash — bular hammasi o'qituvchinijig ijodiy sohasiga kiradi.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o'qitish shakllarini, musiqa faoliyatlarini va ularni o'quvchilarga singdirish uchun kerakli metodlar, texnologiyalar va usullarni aniqlab, so'ng darsning ssenariysini tuzadi. Dars bir umumiy sxemada tuziladi. Har bir faoliyat turlari: musiqa titiglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholg'u asbobiga jo'r bo'lish, o'yinlar - bir-biri bilan bog'lanib, uzviylashtirilgan bo'lishi kerak. Bunda

o'quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod usullari va yo'llari ishlatiladi.

Ma'lumki, musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyahasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda o'quvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir.

O'qitish jarayonida musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar juda ko'p. Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual ta'lim berishga mo'ljallangan bo'ladi. 2-sinf o'quvchilarining tabiatan o'yinqaroq bo'lishini hisobga olgan holda, ularni darsga ko'proq qiziqtirish uchun «o'yin usulidagi darslardan» foydalanish mumkin.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim.

X U L O S A.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar musiqa ta'limini tizimida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash muammosini hal qilish bugungi kun davr talabidir. Ayni vaqtda yoshlarni milliy musiqiy merosimizga hurmat, vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilar olidida turgan, kichiktirib bo'lmaydigan vazifalardir. **“Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish muammolari.”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish musiqiy ta'limda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishning nazariy asoslari amaliy jihatdan puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash va musiqa darslarida notaga qarab kuylash faoliyatlarini yanada unumli hamda yuqori saviyada ishlab chiqishga bog'liqligi aniqlandi.

2. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda o'quvchilarda ijodiy jarayonlarni tashkil etish yuzasidan yozgan malakaviy bitiruv ishimizda musiqiy darslari jarayonida ijodiy faoliyatdan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning musiqa darsariga bo'lgan qiziqishini oshirishga erishish mumkinligi aniqlandi

3. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatish orqali kuylayotgan turli ovoz sozlash mashqlari, ayniqsa yangi o'rganilayotgan qo'shiqlar osonlik bilan o'zlashtirilishi yaqqol sezildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki maktabda musiqa darslarida ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlaridan amalyotda samarali foydalanishning ayrim amaliy usullari bayon etildi.

4. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari orqali o'quvchilar ovozinig shakllanishi va uni saqlash, o'quvchilarning notaga qarab ko'ylashga o'rgatishning dastlabki tashkiliy

jarayonida musiqa madaniyati darslarida kuylash ishlaridan foydalanish yanada yaxshilandi.

5. Shaxs faoliyat jarayonining psixologik-pedagogik tahlili jarayonida yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda qo'shiqning roli, musiqa darslarida notaga qarab kuylash ishlaridan foydalanishning uslubiy vositalari, qo'shiqlarni yanada aniq va nafis kuylashga asosiy e'tiborni qaratildi.

6. Musiqa darslarida o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirish orqali o'rganilayotgan ashulani ijro etish rejasiga qarab qattiq tovushdan yoki nafas tovushdan qo'shiq kuylash va uni o'rgatish uslubiyotida samarali foydalanildi

7. Qo'shiq ijrochiligi orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilarning kuylash madaniyatini takomillashtirishning usullariga, qo'shiqni o'rganish jarayonining boshidan to oxirigacha ijroni ifodaviyligiga ahamiyat berildi.

8. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishning takomillashtirish o'quvchilarni musiqaviy madaniyatini shakllantirishda, vokal-xor malakalari asosida kuylashga o'rgatishda, ularni kuylash malaka va ko'nikmalarini egallashlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqiy saviyasini oshirishdagi yetakchi omillardan hisoblanib musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –20-29 b.
- 3.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.- 31-61 b.
- 4.Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. –Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
- 5.Karimov I.A. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. III jild. Toshkent: O‘zbekiston. 1996, 34-bet.
- 6.Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, Toshkent, «O‘zbekiston», 1996, 76-bet
- 7.Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O‘zbekiston”, 2000. 23-24 b.
8. X.Nurmatov., Mamirov K. «Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi» T., 1999 y.
- 9.Omonullayev D. «O‘zbek maktablarida musiqa ta’limi mazmuniga bo‘lgan zamonaviy talablar» nomli ilmiy ishi T., 1990 y.
- 10.D.Omonullayev «Umumiy ta’lim maktablarida musiqa dasturlari» T.,1992 y.
- 11..Apraqsin O. «Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole» M.1983 yil
- 12.Ibroximov O. Nurmatov X. «Umumiy ta’lim maktablarini 7-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma.» T. 1994y.
- 13..Fitrat L. «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» 1.1993
- 14.Ibroximov O. «O‘zbek xalqi musiqa ijodi» T.1994y.

- 15.Fayziyev O. va boshqalar. «O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari» T.1992.
- 16.Mansurov A. va Karimova D. «Umumiy ta'lim maktablarining 5-sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanomasi» T. 1997 y.
- 16.Omonullayev D.,Nurmatov X., Mamirov K. «Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlari» T.1992y.
- 17.Nurmatov X. va Ibragimov O. «Oltinchi sinfda musiqa darslari uchun qo'llanma». T.,1996
- 18.Kenzer Ye. va Yormatov Sh. Oltinchi sinf uchun «Musiq» darsligi .1978
- 19.Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash T.,1997
- 20.R.Qadirov «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash».
- 21Gudkova E.,Qo'ldoshev L. «Musiq darsligi uchun metodik qo'llanma»(4-sinf)T.1978y
- 22.Gudkova E.A «Uzbekskaya xorovaya literatura». T. 1974.
- 23 Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1990.
- 24 O`zbek musiqa tarixi. T.1981. Tuzuvchi: Solomonova T. E.
25. Internet ma'lumotlari
- WWW.Ziyonet.
 - Pedagog.uz.
 - Kutubxona.uz